

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA FARIDAXON ISAKOVNA**

**SHARQ ADABIYOTIDA DEBOCHA VA UNING POETIKASI**

**10.00.02 –O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам**

**Karimova Faridaxon Isakovna**

Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi ..... 3

**Karimova Faridakhon Isakovna**

Debocha (preface) in the Eastern literature and its poetry .....37

**Каримова Фаридaxon Исаковна**

Дебоcha (предисловие) в Восточной литературе и её поэтика .....71

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 76

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOVA FARIDAXON ISAKOVNA**

**SHARQ ADABIYOTIDA DEBOCHA VA UNING POETIKASI**

**10.00.02 –O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil15 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

**Haqqulov Ibrohim Choriyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Asadov Maqsud Husenovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

**Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Jo'rayev Jaloliddin Olimjonovich**  
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA Adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 28 dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona sh., B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy Tel: (0573) 244-44-29; faks: (0573) 244-44-91; e-mail: fardu\_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (319 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19, Tel: (0573) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 16 dekabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil 16 dekabr dagi 33 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.M.Iskandarova**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor.

**M.T.Zokirov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari  
nomzodi, professor.

**Z.B.Qobilova**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor.

## KIRISH (Fan doktori (DSs) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida shoir-u allomalarning hayot va ijod yo‘llarini manbalar asosida o‘rganish, ma‘lumotlarni to‘plash, ularning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilash muhim masalalardan biridir. “Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish”<sup>1</sup> dolzarb bo‘lib turgan davrda bashariyat so‘z san’ati xazinasini boyitgan mumtoz shoirlar va ularning adabiy merosini o‘rganish, targ‘ib va tashviq etish dunyo xalqlarining komil inson tarbiyasi va jamiyat mukammalligi bilan bog‘liq ulug‘vor maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Ijodkorning hayot va ijod yo‘li haqida ma‘lumot beruvchi ishonchli manba, eng avvalo, o‘zining asarlaridir. Devonlarga yozilgan debochalar ana shunday manbalar qatorida alohida ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz shoirlarning tarjimayi holi, faoliyati, adabiy merosi, asarlarining yaratilish jarayonlari, ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitning ular ijodiga ta’siri va badiiy ijod masalalari borasidagi qarashlarini atroflicha tadqiq etish nihoyat darajada muhim. Jahon ilm-fani, adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mumtoz so‘z san’atkorlarining hayoti va ijodiy merosini o‘rganishga intilish kuchayib borayotgani esa e’tiborga molikdir.

Sharq xalqlari adabiyotida devonlarga va boshqa turli asarlarga debochalar bitilgan. Debochalarning ilk namunalari fors-tojik adabiyotining Hakim Sanoiy, Faxriddin Iroqiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi vakillari ijodida uchraydi. Alisher Navoiy bu sohadagi tajribalarni chuqur o‘rgandi, ularga ijodiy munosabatda bo‘ldi va o‘z devonlarini ajoyib debochalar bilan bezab, debochanavislikni takomillashtirdi. Sharq mumtoz adiblari hayoti va ijodini, asarlari poetikasini yoritishda debochalarning ilmiy-adabiy ahamiyatini asoslab berish adabiyotshunoslikning bosh vazifalaridan biridir. Hozirga qadar Sharq adabiyoti tarixida yaratilgan o‘nlab debochalar, ularning yuzaga kelishi va taraqqiyoti masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi,

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. Ислол ҳамкорлик ташкилоти Ташки ишлар вазирилари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутк. // Халқ сўзи, 2017 йил, 19 октябрь.

2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-sonli “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Debocha genezisi va poetikasini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Istanbul Universiteti, Ankara Universiteti, Karabuk Universiteti (Turkiya); Harvard University (Cambridge); Balx davlat universiteti (Afg‘oniston), Aligarh Muslim University, Delhi University (Hindiston); Azərbaycan Milli elmler akademiyasi Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu va Z.Bünyadov adına Şərqsünashlıq İnstitutu (Ozarbayjon); Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге (Россия); Donishgohi millii Tojikiston, Instituti zabon, adabiyot, sharqshinosiy va merosi xattii banomi Rydakī, Donishgohi davlatii Xuchand ba nomi akademik B.G‘afurov (Tojikiston); O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda. Xususan, Hindistondagi Aligarh Muslim universiteti professori Muhammad Habibning Xusrav Dehlaviy hayoti va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqoti mavjud. Unda muallif shoir devonlaridagi turli janrda yaratilgan she‘rlarni alohida o‘rganib, devon debochalarini mustaqil asarlar qatorida sanab ko‘rsatgan<sup>3</sup>. Muhammad Vohid Mirzoning tadqiqotida esa debochaning Xusrav Dehlaviy hayoti va ijod yo‘lini o‘rganishdagi ahamiyatiga e‘tibor qaratilgan<sup>4</sup>.

Tojik olimi A.Afsahzod Tojikiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Rossiya va boshqa davlatlar kutubxonalari qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan Abdurahmon Jomiy devonlarining o‘nlab nusxalarini tadqiq etgan. Ular orasidan eng ishonchli deb topilgan 9 ta nusxani obyekt sifatida tanlab, debochalar va mumtoz she‘riyatning 11 ta janridagi she‘rlarni qiyoslagan holda, Abdurahmon Jomiy devonlarining nisbatan mukammal ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratgan<sup>5</sup>. M.Baqoyev Xusrav Dehlaviy adabiy merosi, xususan, devonlari va

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [https://tg.wikipedia.org/wiki/Хусрави\\_Дехлавй](https://tg.wikipedia.org/wiki/Хусрави_Дехлавй), <http://edebiyatbilgileri.com/divan-edebiyati-nazim-turleri>, <http://ganjoor.net>, <http://dergipark.gov.uz>, <https://dergipark.org.tr>, <http://iranicaonline.org>, <http://encyclopedia.com>, <https://www.academia.edu> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

<sup>3</sup> Mohammed Habib. Hazrat Amir Khusrau of Delhi. –Delhi, 2007. – Б.95.

<sup>4</sup>Mohammed Wahid Mirza. The life and works of Amir Xusrav. –Calcutta, 1935. <https://tg.wikipedia.org/wiki/ХусравиДехлавй>.

<sup>5</sup>Аълохон Афсахзод. Проблема литературного и научного наследия Абд ар-Рахмана Джамии. / Абдаррахман Джамии. Три дивана.Второй и третий диван. Критический текст. – М.: Наука, ГРВЛ, 1980.

ularning qo‘lyozma nusxalari, tuzilishi, janr xususiyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa<sup>6</sup>, Sabohuddin Abdurahmon “Tuhfat us-sig‘ar” devoniga to‘xtalib, debochada devonlarning yaratilish tarixi haqida muhim ma‘lumotlar berilishini yozadi<sup>7</sup>.

Turk olimi Muhammad Nur Do‘g‘an Muhammad Fuzuliy forsiy devonining debochasi xususida bahs yuritgan.<sup>8</sup> Tahir Uzg‘o‘r bo‘lsa debocha kalimasi, debochani mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot berib, Ahmad Posha, Alisher Navoiy, Nejatiy, Revaniy, Jalalzoda Solih Chalabiy, Fuzuliy, Tashlisali Yahyo Bey, Misaliy, Sinaniy, Sidki Pasha kabi qirqa yaqin shoirlar devonlariga yozilgan debochalar matni va ularning tabdillarini misol tariqasida keltiradi<sup>9</sup>. Ozar olimi A.Xalilov debochalarni badiiy muqaddimalarning turlaridan biri sifatida o‘rgangan<sup>10</sup>. S.Boltaboyev esa Alisher Navoiy devonlari debochalarining matnlari va ularning usmonli turk tilidagi tabdili keltirilgan kitob nashr etgan hamda unga mufassal lug‘at ilova qilgan<sup>11</sup>.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyoti tarixi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarda debochalar va ularda qo‘yilgan masalalar haqida ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan<sup>12</sup>.

<sup>6</sup>Бақоев М. Ҳаёт ва эҷодиёти Хусрави Деҳлавий. – Душанбе: Дониш, 1975.

<sup>7</sup> Appreciative Study of Variagatedness of Amur Khusrau’s Poetry. / Life, times and works of Amir KhusrauDehlavi. Edited by Zoe Ansari. –New Delhi: National Amir Khusrau Society. 1975.

<sup>8</sup>Muhammet Nur Doğan. Fuzulî’nin poetikası. –Istanbul: Ötüken neşriyat A.Ş., 2022. 117-120 с.

<sup>9</sup>Tahir Üzgör. Türkçe Divân dîbâceleri. –Ankara: Kültür Bakanlığı, 1990. -566 с.

<sup>10</sup> Xalilov Aras Vaqif o‘g‘lu. Klassik Azərbaycan poeziyasında bədii muqəddimə (dibaçə, saqınamə, kitabın yazılma səbəbi). Filologiya elmləri namizədi diss. avtoref. –Baki: 2006.

<sup>11</sup> Boltabayev S. Ali Şir Nevâyî divanlarinin dibaceleri. –Ankara: Akçağ Yayinlari, 2022.

<sup>12</sup> Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959; Навоий лирикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015; Ҳамид Сулаймон. “Ҳазойин ул-маоний” матнларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. // Ҳазойин ул-маоний, 4 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1959; Шомухамедов Ш. Абдурахмон Жомий. – Тошкент: Фан, 1963; shu muallif: Шомухамедов Ш., Мусаев Б. Амир Хусрав Деҳлавий. – Тошкент: Фан, 1971; Б.Валихўжаев. XV-XIX асрлар ўзбек адабий-танқидий қарашлари тарихидан. СамДУ асарлари, янги серия, 138-чиқарилиши. –Самарқанд: 1964; Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965; shu muallif: Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Солихова М. Навоий дебочаларида шоир биографиясига доир маълумотлар. // Адабий мерос, 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1968; Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2010; Абдуғафуров А. Рисолаи Ҳусайн Бойқаронинг яратилиш тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 3-сон; shu muallif: “Бадоеъ ул-бидоя”нинг тузилиш санаси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 4-сон; shu muallif: “Ҳазойин ул-маоний” жумбоқлари. Биринчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994, 1-сон. shu muallif: “Ҳазойин ул-маоний” жумбоқлари. Иккинчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. 4-,5-,6-сон; shu muallif: “Ҳазойин ул-маоний” жумбоқлари. Учинчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон; shu muallif: “Ҳазойин ул-маоний” жумбоқлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 5-сон; Зоҳидов В.Дебочанинг сири. // Ҳаётбахш бадийят тароналари. – Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975; shu muallif: Яна бир дебочанинг шаходати. // Жаҳон бадийяти зарварақлари. – Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980; Мусамухамедова П. Жизнь и творчество Факири: Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Ташкент, 1974; Ғанихўжаев Ф. Табибий. – Тошкент: Фан, 1978; Ғаниева С. Алишер Навоий ижодиёти ва наср проблемалари. // Ўзбек насри тарихидан. – Тошкент: Фан, 1982. Салоҳий Д. “Бадоеъ ул-бидоя” девони ва бадий санъаткорлик масалалари: Филол. фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент, 1993; shu muallif: Навоийнинг шеърӣи услуги масалалари. – Тошкент: Фан, 2005; shu muallif: Навоийнинг девон тақмили соҳасидаги яна бир маҳорати.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2019, 1-сон; Жўраев Ҳ. Алишер Навоийнинг кексалик даври лирикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1993. Сирожидинов Ш.С. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV-XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари(қийсий-типологик, текстологик таҳлил): Филол. фан. докт. дисс. автореф. –Тошкент, 1998; Эшмонов Ғ. Мужрим-Обид адабий мероси: Филол. фан. ном...дисс. –Тошкент, 2007; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол.фан. номз.дисс. автореф. –Тошкент, 2007; Қобилова З.Б. Амирий ва унинг адабий фаолияти: Филол.фан. номз.дисс. –Тошкент, 2007; Қаюмов А. Асарлар. 10 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009; Солижонов Й. Сўзбоши қадри. // Ҳақиқатнинг синчков кўзлари.. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Сирожидинов Ш. Алишер

Jumladan, ilmda Alisher Navoiy debochalariga birinchi bo‘lib professor A.Hayitmetov e‘tibor qaratgan<sup>13</sup>. Olim Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda ulug‘ shoir debochalarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

Taniqli matnshunos va manbashunos Hamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy” matnlarini o‘rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari”<sup>14</sup> tadqiqotida to‘plamning yaratilishi, tuzilishi va undagi devonlarning nomlanishi, ulug‘ shoirning tarjimai holini chuqurroq o‘rganishda debochadagi ma‘lumotlar alohida ahamiyat kasb etishiga to‘xtalgan. Yetuk adabiyotshunos Yo.Is‘hoqovning “Navoiyning ilk lirikasi” tadqiqotida shoirning fors-tojik adabiyoti an‘analariga munosabati va g‘azalchilik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini belgilashda debochalar muhim manba ekanligi yoritilgan bo‘lsa, “Navoiy poetikasi” monografiyasida shoir g‘azallarining g‘oyasi, uslubi, badiiyati tahlil qilinib, debochalarga ham diqqat qilingan<sup>15</sup>.

M.Solihovanning “Alisher Navoiy devonlariga yozilgan debochalarda shoir biografiyasiga doir ma‘lumotlar”<sup>16</sup> maqolasida shoir hayoti, asarlarining yozilish tarixi, ustozlari haqida ma‘lumotlarni yoritishda debochalarning ahamiyati xususida bahs yuritilgan. Akademik V.Zohidovning “Debochaning siri” maqolasida, ayniqsa, Husayn Boyqaroning ulug‘ shoir ijodiga munosabati “Xazoyin ul-maoniy” debochasi asosida haqqoniy va xolis baholangan.<sup>17</sup>. “Yana bir debochaning shahodati” maqolasida esa “Badoye’ ul-bidoya” debochasidagi ma‘lumotlarga tayanib, Navoiy va Husayn Boyqaro mavzusiga kengroq o‘rin berilgan. O‘zbekiston Qahramoni, professor S.G‘aniyeva “Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari” maqolasida mutafakkir shoirning 13 nomdagi turli nasriy asarlari haqida fikr yuritib, ular qatorida devonlarga yozilgan debochalarni ham

---

Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологияк, текстологияк таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011; Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тамаддун, 2016; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018; Жўрабоев О. Мирзо Сиддиқ Фано ва унинг адабий мероси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 2-сон; shu muallif: Навоий девончилиги ва Қўқон адабий муҳити. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 1-сон; Жўраев Ж. Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи: Филол. фан.бўйича фалс. докт.(PhD) дисс. автореф.– Тошкент, 2012; shu muallif: Комёб ҳаёти ва ижодий мероси манбалари тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019; Давлатов О. Алишер Навоий шеърлятида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2017; Эргашев Қ. “Хазойин ул-маоний”нинг яратилиш тарихига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020, 1-сон; Қобилова З. Бадий ижодда таъсир ва издошлик масалалари(Амирий шеърляти мисолида): Филол фанлари доктори... дисс. –Фарғона, 2021; Шомуродова С. XX аср ўзбек адабиётида девончилик анъанаси: мавзу, таркиб, вазн ва бадий санъатлар: Филол. фан.бўйича фалс. докт.(PhD) дисс. автореф. –Самарқанд, 2022. Имомназаров М. Мукулмон минтака маданияти ривожда мажоз тариқи. Хусрав Дехлавий. 2-китоб. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2023;

<sup>13</sup> Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959; shu muallif: Навоийнинг форсий мактублари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, 1-сон. – Б.9-13; shu muallif: “Хазойин ул-маоний” такмили ва Ҳусайн Бойқаро. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон. –Б.9-13; shu muallif: Алишер Навоий ижодида мавзуларга бўлиш ва танлаш принциплари. // Навоийга армуғон. – Тошкент: 2003. – Б. 8-12.

<sup>14</sup> Ҳамид Сулаймон. Хазойин ул-маоний матнларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. // Хазойин ул-маоний, 4 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1959. – Б.5-28.

<sup>15</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиётида ғазал ва унинг ривожда Навоийнинг роли ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961, 3-сон. – Б.13.

<sup>16</sup> Солиҳова М. Навоий debochalарида шоир биографиясига доир маълумотлар. // Адабий мерос, 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1968. –Б. 94-95.

<sup>17</sup> Зоҳидов В. Debochaning siri. // Ҳаётбахш бадийят тароналари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.119-136; Яна бир debochaning шаҳодати. // Жаҳон бадийяти зарварақлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б.282-298.

sanab ko'rsatadi.<sup>18</sup> Professor A.Abdug'afurov "Badoye' ul-bidoya" debochasi Husayn Boyqaro risolasining yozilgan vaqtini aniqlashda ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratadi<sup>19</sup>. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi" maqolasida esa devonning tartib berilish yillari debochaga asoslanib oydinlashtirilgan. Olim "Xazoyin ul-maoniy" to'plamining yaratilish tarixi haqida ham bir nechta maqolalar e'lon qilgan<sup>20</sup>.

Adabiyotshunos L.Serikova tomonidan "Xazoyin ul-maoniy" debochasining rus tiliga tarjima qilinishi diqqatga sazovordir<sup>21</sup>. Olima "tarjimonlardan buyuk mutafakkir asarlarining faqat to'liq tarjimasini talab qilish" zarurligini ta'kidlagan<sup>22</sup> va "Xazoyin ul-maoniy" debochasini mufassal tarjima qilgan.

Sh.Shomuhamedov va B.Musayevlarning tadqiqotida Xusrav Dehlaviy devonlariga yozilgan debochalarning shoir hayot yo'li, ijodini o'rganishdagi ahamiyati yoritib berilgan<sup>23</sup>. So'nggi yillarda ham Sharq adabiyotining mumtoz vakillari, jumladan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini yangicha talqinlarda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, D.Yusupova, Q.Ergashevlarning ishlarida ulug' shoir tarjimayi holi va faoliyati, adabiy merosi, ijodiy laboratoriyasi manbalar, jumladan, devon debochalari asosida tadqiq etilishi ahamiyatlidir<sup>24</sup>. M.Imomnazarov tadqiqotlari Alisher Navoiy va Xusrav Dehlaviylarning hayoti va ijodiy merosini o'rganishga o'ziga xos tarzda yondashilganligi, tahlillar jarayonida juda ko'p tarixiy, ilmiy va adabiy manbalar, xususan, debochalardagi ma'lumotlarga tayanilganligi bilan e'tiborga loyiq<sup>25</sup>.

Fors-tojik adabiyotining Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, ozar shoiri Muhammad Fuzuliy, o'zbek she'riyatining Alisher Navoiy, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Mohlaroyim Nodira, Amiriy, Tabibiy, Faqiriy, Muhsiniy, Mujrim-Obid, Fano, Muhayyir kabi o'nlab vakillari o'z devonlariga debocha bitganlar. Debochalar mazkur shoirlar hayoti va ijodini

---

<sup>18</sup> Ганиева С. Алишер Навоий и жодиёти ва наср проблемалари. // Ўзбек насри тарихидан . – Тошкент: Фан, 1982. – Б.58.

<sup>19</sup> Абдуғафуров А. "Рисолаи Хусайн Бойқаро"нинг яратилиш тарихидан. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 3-сон. – Б.15-18. "Бадоеъ ул-бидоя"нинг тузилиш санаси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 4-сон.-Б.3-12.

<sup>20</sup> Абдуғафуров А. "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари. Биринчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994, 1-сон. –Б. 3-10; shu muallif: "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари. Иккинчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994, 4-, 5-, 6-сон. –Б.9-16; shu muallif: "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари. Учинчи мақола. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон. –Б.3-10; shu muallif: "Хазойин ул-маоний" жумбоқлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 5-сон. –Б.3-11.

<sup>21</sup> Серикова Л. Предисловие к "Сокровищнице мыслей" Алишера Наваи. // Адабий мерос, Фан, 1984, 1-сон. – Б.15-21; 2-сон. –Б54-59.

<sup>22</sup>Серикова Л. Алишер Навоий асарларининг рус тилига таржимаси. // Адабий мерос, Фан, 1980, 2-сон. – Б.78.

<sup>23</sup> Шомухаммедов Ш., Мусаев Б. Амир Хусрав Деҳлавий. – Т.ошкент: Фан, 1971.

<sup>24</sup> Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Тошкент: Академнашр, 2011; Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Тамаддун, 2016; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018; Эргашев Қ. "Хазойин ул-маоний"нинг яратилиш тарихига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020, 1-сон. – Б. 32-39 ; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2022; Давлатов О. Алишер Навоий шеърлятида Қуръон оятлари ва ҳадислар. // Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 28-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2023. – Б. 7-106.

<sup>25</sup>Имомназаров М. Мусулмон минтақа маданияти ривожда мажоз тариқи. Хусрав Деҳлавий. 1-китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2023; Мусулмон минтақа маданияти ривожда мажоз тариқи. Алишер Навоий. 2-китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2023.

o'rganishda, ularning adabiyot tarixida tutgan o'rnini belgilashda dolzarblik kasb etadi. Biroq Sharq adabiyotida yaratilgan debochalar, ularning vujudga kelishi va taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-badiiy qimmatini hozirga qadar monografik yo'sinda o'rganilgan emas.

**Tadqiqot dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sharq adabiyotida yaratilgan, xususan, Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Tabibiy, Amiriy, Nodira, Muhayyir devonlaridagi debochalarni atroflicha o'rganish, debochalarning shoirlar tarjimai holi va ijodiy merosi, adabiy-estetik qarashlarini yoritishda birlamchi manba sifatidagi ahamiyatini ochib berish va debochalar poetikasini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

Sharq adabiyotida debochalarning yuzaga kelishi, takomil tarixi hamda qonuniyatlarini o'rganish;

Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi Sharq mumtoz shoirlari debochalarini tadqiq etish, ularning debochanavislik an'analari, jumladan, o'zbek adabiyotidagi debochanavislik rivojida tutgan o'rnini belgilash;

o'zbek mumtoz adabiyoti debochanavisligining shakllanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiy debochalarining mavqeyi masalasini tadqiq etish;

Navoiydan keyingi turkiy adabiyotda yaratilgan debochalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish;

debochalarda qo'yilgan badiiy ijod masalalarini tadqiq etish;

Sharq adabiyotidagi debochalarning badiiy xususiyatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti.** Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Ahmad Tabibiy, Umarxon Amiriy, Mohlaroyim Nodira, Muhayyir kabi o'nlab Sharq mumtoz shoirlarining O'zR FA Sharqshunoslik instituti, Qo'qon davlat Adabiyot muzeyi, Samarqand davlat universiteti qo'lyozmalar fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma devonlardagi hamda ilmiy-ommabop nashrlardagi debochalari.

**Tadqiqotning predmetini** Sharq adabiyotida debochalarning mustaqil janr sifatidagi maqomini o'rganish, ularning poetikasi, adabiy-estetik xususiyatlari, debochanavislikning nazariy qonuniyatlari hamda mumtoz shoirlar uslubining bu boradagi mushtarak va farqli xususiyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, biografik, germeneytik metodlar va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Sharq adabiyotida debochaning yuzaga kelish tarixi va rivojlanish qonuniyatlari, konseptual-dasturiy mohiyati, adabiy-kompozitsion xususiyatlari, badiiyati, adabiyotshunoslik obyekti sifatidagi nazariy xususiyatlari asoslangan;

debochanavislik tarixidagi an'ana va o'ziga xosliklar tahlil qilinib, Hakim

Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlarning Sharq debochanavisligi taraqqiyotidagi xizmatlari birlamchi manbalar asosida dalillangan;

o'zbek mumtoz adabiyoti debochanavisligida Alisher Navoiy debochalarining tutgan mavqeyi, ularning ilmiy-badiiy qimmat, debochalar kompozitsiyasidagi shoirning badiiy mahorati qiyosiy tahlil imkoniyatlaridan foydalanib ilmiy jihatdan isbotlangan;

Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalarning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati, ularda Navoiy an'alarining ijodiy tarzda davom ettirilishi, biografik manba sifatidagi ahamiyati oydinlashtirilgan;

Sharq adabiyotidagi debochalar va ularning vujudga kelishi, taraqqiyot tamoyillari, mohiyati, ma'no qamrovi, badiiyati monografik tarzda o'rganilgan hamda debochalarning shoirlar hayoti va ijodini tadqiq etishda birlamchi manba ekanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sharq adabiyotidagi debochalarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, mumtoz shoirlar hayoti va ijodini o'rganishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan va xulosalar chiqarilgan;

fors-tojik adabiyotida debochaning paydo bo'lishi, taraqqiyoti xususidagi fikr-mulohazalar Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy debochalari va ularda qo'yilgan masalalar tahlili asosida dalillangan;

Alisher Navoiyning o'zbek debochanavisligi taraqqiyotidagi xizmatlari "Badoye' ul-bidoya", "Xazoyin ul-maoniy" debochalari va ularning tuzilishi, tarkibi, kompozitsiyasi, badiiyati tahlili orqali ilmiy nuqtai nazardan baholangan;

Navoiydan keyingi davrda yaratilgan o'nlab debochalar tahlili orqali o'zbek mumtoz adabiyotida debochanavislik an'anasi va uning o'ziga xosligi, debochaning mumtoz shoirlar hayoti va ijodini yoritishda muhim adabiy manba sifatidagi ahamiyati oydinlashtirilgan;

Sharq adabiyotidagi devon debochalarining fors-tojik, o'zbek, ozarbayjon shoirlarining hayoti va ijodini, adabiy-estetik qarashlarini o'rganishda birlamchi manba ekanligi xususida ilmiy-amaliy xulosalar chiqarilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning to'g'ri qo'yilganligi, ilmiy muammoning o'rganilish chegaralari aniq belgilab olinganligi, tahlillar va xulosalarning dastlabki va ishonchli manbalarga tayanganligi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asoslanganligi, tahlillar qiyosiy-tarixiy, biografik, germenevtik metodlar va statistik tahlil usullari vositasida olib borilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** shundaki, Sharq adabiyotidagi debochalarning yuzaga kelishi va taraqqiyoti, ularning ilmiy-adabiy ahamiyatiga doir katta hajmdagi manbalar ilmiy tekshirish doirasiga olib kirilgan. Sharq adabiyotidagi debochalarning vujudga kelishi va rivojida Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy debochalarining ahamiyati hamda ularning o'zbek adabiyotidagi debochanavislik an'alariga barakali ta'siri yoritilgan. O'zbek adabiyotidagi

dastlabki debochalar ijodkori bo'lgan Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" va "Xazoyin ul-maoniy"ga yozgan debochalari tizimli tarzda o'rganilgan. Navoiydan keyingi davrda yashab ijod qilgan o'nlab o'zbek shoirlari tomonidan yaratilgan debochalar va ularning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Sharq adabiyotidagi debochalar va ularning ilmiy-adabiy ahamiyati birlamchi qo'lyozma manbalar asosida birinchi marta yaxlit tarzda maxsus tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** shundaki, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Amiriy, Nodira kabi fors-tojik, ozar va o'zbek shoirlari debochalari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlariga doir ilmiy-nazariy ma'lumot va xulosalar Sharq mumtoz shoirlari, xususan, Navoiy hayoti va ijodini chuqurroq yoritishga xizmat qilishi shubhasiz. Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik, qo'llanma, ma'ruza matnlari tayyorlashda, magistrlar uchun maxsus fanlardan mashg'ulotlar o'tkazishda, o'rta umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Sharq adabiyotida debochaning yuzaga kelish tarixi va rivojlanish qonuniyatlari, konseptual-dasturiy mohiyati, adabiy-kompozitsion xususiyatlari, badiiyati, adabiyotshunoslik obyekti sifatidagi nazariy xususiyatlari asoslangani bilan bog'liq ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan FA - F1-GO39 raqamli "Alisher Navoiy (2 jildlik) va Abdulla Qodiriy qomuslarini yaratish" (2012 - 2016) mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2023-yil 24-avgustdagi 3/1255-1788-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiyning devonchilik an'alariga ijodiy munosabati, debochanavislik mahorati, debochada qo'yilgan masalalarning shoir hayoti va ijodini o'rganishga doir ilmiy-nazariy xulosalar loyihaning nazariy qimmatini oshirgan;

debochanavislik tarixidagi an'ana va o'ziga xosliklar tahlil qilinib, Hakim Sanoiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlarning fors debochanavisligi taraqqiyotidagi xizmatlari birlamchi manbalar asosida dalillanganiga doir xulosalardan PZ-20170926459 raqamli "Navoiyshunoslik tarixi" (XX – XXI asrlar) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 18-maydagi 01/10-980-sonli ma'lumotnomasi). Sharq adabiyotidagi debochanavislik an'anasi va Navoiyning mazkur an'ana rivojiga qo'shgan hissasi, Navoiydan keyingi davrdagi devon debochalari va ularning mumtoz shoirlar hayoti va ijodini o'rganishdagi ahamiyatiga doir yangi ilmiy qarashlar, nazariy ma'lumotlar va yangi manbalar bilan boyitilgan;

o'zbek mumtoz adabiyoti debochanavisligida Alisher Navoiy debochalarining tutgan mavqeyi, ularning ilmiy-badiiy qimmatini, debochalar kompozitsiyasidagi shoirning badiiy mahorati qiyosiy tahlil imkoniyatlaridan foydalanib ilmiy jihatdan isbotlangani haqidagi fikr-mulohazalardan Namangan viloyati teleradiokompaniyasi telekanalida efirga uzatilgan turkum ko'rsatuvlar senariylarini shakllantirishda foydalanilgan (Namangan viloyati

teleradiokompaniyasining 2023-yil 26-iyundagi 02-04-222-sonli ma'lumotnomasi). Natijada yangi dalil, fikr-mulohaza va nazariy xulosalar teleko'rsatuvlarning sifati ortishiga, tomoshabinlarning Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishlari kuchayishiga, shoir asarlarining mazmun-mohiyati va badiiyatini chuqurroq idrok etishlariga xizmat qilgan;

Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalarning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati, ularda Navoiy an'alarining ijodiy tarzda davom ettirilishi, biografik manba sifatidagi ahamiyati oydinlashtirilgani, Sharq adabiyotidagi debochalar va ularning vujudga kelishi, taraqqiyot tamoyillari, mohiyati, ma'no qamrovi, badiiyati monografik tarzda o'rganilgani hamda debochalarning shoirlar hayoti va ijodini tadqiq etishda birlamchi manba ekanligi nazariy jihatdan isbotlanganiga oid xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo'limining Alisher Navoiy hayoti va ijodi, asarlaridagi umuminsoniy g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan navoiyxonlik tadbirlarida, uyushma qoshidagi "Muzaffar so'z" to'garagi mashg'ulotlarida hamda aholi o'rtasida o'tkazilgan adabiy uchrashuv, suhbat, kitob taqdimotlarida, shuningdek, "Adabiyot kunlari", "Navoiyxonlik" singari adabiy-ma'rifiy tadbirlar loyihasini ishlab chiqish va tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyati bo'limining 2023-yil 19-iyundagi 27-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat aholisi, xususan, talabalar va mahallalar yoshlarining o'zbek adabiyoti vakillari, xususan, Alisher Navoiy tarjimai holi, asarlarining mazmun-mohiyati, bugungi kundagi ahamiyati borasidagi tushuncha va tasavvurlari kengaygan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 50 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, xorijiy to'plamlarda 3ta maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan, 14 tasi respublika, 6 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 237 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sharq adabiyotida debocha genezisi va rivojlanish qonuniyatlari**" deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli "**Debocha istilohi, genezisi va shakllanish tarixi**" tadqiqiga bag'ishlanadi. Bu faslda

debochani lugʻaviy va istilohiy maʼnolari, kelib chiqishi va shakllanish jarayonlari xususida bahs yuritilgan.

Sharq adabiyoti tarixidagi debochalar uzoq tarixga ega va shoirning tarjimai holi, ijodiy merosini oʻrganishda muhim adabiy manbadir. Debochalar devonlar tarkibida, aniqrogʻi, boshlanish qismida oʻrinlashadi va boshqa asarlardan mohiyati, masalaning qoʻyilishi, kompozitsiyasi, tasvir uslubi kabi bir qator oʻziga xosliklari bilan farq qiladi. Debocha shoirning faoliyati, maʼnaviy olami, asarlarining yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlarini yorqin ifoda etishi bilan muhimdir.

Debocha istilohiga turlicha taʼrif berilgan. Ularda oʻzaro mushtarak va farqli jihatlar mavjud. “Farhangi zaboni tojiki”da debocha soʻzi quyidagicha izohlangan: “Debocha – 1. Qimmatbaho ipak matodan tikilgan va zar-u javohir bilan ziynat berilgan shohona libos. 2. Zarhal va qimmatbaho ranglar bilan sayqal berilgan qadimgi kitoblar muqaddimasi. 3. Maj. soʻzboshi, muqaddima, kirish soʻz. 4. Maj. avval, har narsaning ibtidosi. 5. Maj. yuz, chehra”<sup>26</sup>. “Gʻiyos ul-lugʻat” muallifining yozishicha: “... kitob xutbasini, boshlanish qismini bezash munosabati bilan aytilgan kirish qismiga debocha deyilgan. .. Debocha soʻzi “yo” harfi va “jim” harfi bilan ifodalanganda arabcha lafz boʻlib, chehra, yuz, yonoq maʼnolarni ham bildiradi. Chunki kitobning xutbasi va kirish qismi uning yuzidir. Shu sababli kitobning xutbasini, kirish qismini debocha deyishgan”<sup>27</sup>. “Farhangi forsiyi amid” lugʻatida debocha va debo soʻzlariga berilgan izoh yuqoridagi fikrlarga hamohang<sup>28</sup>. Kuzatishlarimiz jarayonida Hasan Anusha boshchiligida tuzilgan “Donishnomai adabii forsiy” (“Fors adabiyoti ensiklopediyasi”) turkumidagi ensiklopedik lugʻatda nisbatan mukammalroq maʼlumotlar keltirilgani ayon boʻldi. Yaʼni debocha soʻzi til urmoq (gapirmoq, bayon qilmoq), nur sochmoq va yorishmoq lugʻaviy maʼnolarini ifoda etadi, shuningdek, sumariy tilidagi “dub” soʻzidan olingan boʻlib, istiloh sifatida lavha va xatt (chiziq) maʼnolarini anglatadi. Muqaddimalar, eng avvalo, mantiq faniga oid asarlarga, sekin-asta adabiyot, xususan, ilmi badeʼga doir asarlarga yozila boshlangan. Umuman, debocha yozish uchun zarur boʻlgan sakkiz jihat mavjud boʻlib, bular quyidagi tartibda keltiriladi: 1. Ilmning maqsad va gʻoyasini ifodalash uchun. 2. Mazkur ilmning foydasi haqida. 3. Ilmning yoʻnalishini belgilash maqsadida. 4. Kitobning muallifi, musannifi, mudavvani (devon tartib beruvchi) haqida bahs yuritish uchun. 5. Mazkur ilmning oʻrni, ilmlar orasidagi yaqinlik, aloqadorlik, munosabatlar va boshqalar haqida fikr yuritish uchun. 6. Mazkur ilmning ilmlar orasidagi darajasini belgilash uchun. 7. Ilmning boʻlimlarini koʻrsatib berish uchun. 8. Mazkur ilmni oʻqitish tarzini koʻrsatish uchun.

Fikrimizcha, debochalarning tarkibi bilan bogʻliq mazkur xususiyatlar ilmiy va adabiy boʻlmagan asarlarga aloqador. Chunki “adabiy kitoblarning debochalari boshqacha shaklda yozilgan. Adabiy matnlarning yozuvchilari oʻz mahoratlari va ilmlarini debocha yozishda qoʻllashgan. Zero, debocha kitob yozuvchisining uslubi

<sup>26</sup> Фарҳанги забони тоҷики. Иборат аз ду ҷилд, ҷилди I. – М.: СЭ, 1969. – Саҳ. 360-61.

<sup>27</sup> Муҳаммад Ғиёсиддин бинни Жалолиддин бинни Шарофиддин. Ғиёсул-луғат, иборат аз се ҷилд, ҷилд I. – Душанбе, Адиб, 1987. – Саҳ. 460.

<sup>28</sup> Саййид Амир Ризавий. Фарҳанги форсийи амид. – Техрон: Интишороти Фуъод. 1374(1995). – Саҳ.430.

va tilini namoyon qiluvchi manba”dir<sup>29</sup>. Ya’ni debocha kompozitsiyasining tavhid (hamd), na’t, ittihof kabi tarkibiy qismlari ilmi bade’imkoniyatlaridan foydalangan holda bayon qilinadi, shu bois debochalarda ilmiylik va badiiylik o‘zaro uyg‘unlashadi. Nazmiy debochalar ham hajman kattaligi va badiiy jihatidan mukammalligiga ko‘ra devondagi boshqa she’rlardan yaqqol ajralib turadi. Debochalarda baroati istehlol san’atining ko‘p qo‘llanishi diqqatga sazovordir<sup>30</sup>. Debochaning bir necha ko‘rinishlari bo‘lib, kitob muallifi tomonidan va boshqalar tomonidan yoziladigan debochalar, nazmiy va nasriy debochalar bir-biridan farqlangan. E’tiborlisi, qanday uslubda yozilmasin, debocha va kitob(asar) matni o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlik, uzviy aloqadorlik, albatta, bo‘ladi<sup>31</sup>.

Izlanishlarimizdan ayon bo‘ldiki, debocha haqidagi ma’lumotlarning aksariyati, asosan, diniy va ilmiy mavzudagi asarlarga yozilgan muqaddimalarga aloqador. Debocha istilohining lug‘aviy ma’nosi so‘zboshi, muqaddima, kirish so‘z ma’nolarini ifodalagani uchun ham debocha va muqaddima so‘zlari o‘zaro sinonim sifatida ishlatilgan.

Debocha va muqaddimaning mushtarak tomonlari bo‘lsa-da, ular bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, debochalar devonlar uchun maxsus yoziladi. Shuningdek, debochalar o‘ziga xos kompozitsion tuzilish, shakliy va mazmuniy butunlikka hamda nisbiy mustaqillikka egadir. Shu sababli, debocha alohida “janr”lar qatorida sanab ko‘rsatilgan<sup>32</sup>. Biroq adabiyotshunos U.To‘ychiyevning debochalar “...ko‘pincha masnaviy tarzida yoziladi. Debochaning g‘azal, masnaviy tarzida yozilishi uning lirika janrlari sirasiga kiruvchi badiiy asar ekanligini ko‘rsatadi”, degan fikri e’tiroz paydo qiladi. Chunki she’riy debochalar yozilish uslubiga ko‘ra debochalarning bir ko‘rinishi, xolos. To‘g‘ri, debocha devon tarkibida yashaydi. Biroq mohiyatan shoirning tarjimai holi, faoliyati, ma’naviy qiyofasi, devon badiiyati va shoir adabiy-tanqidiy qarashlarining o‘ziga xosligini yorqin ifoda etuvchi debochalar alohida olinganda ham mustaqil ma’no va kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘ladi. Axborot berish tamoyili ustunlik qilsa-da, debochalar nasriy va she’riy qismlardan tashkil topgan badiiyat namunasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Debochalar o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Ularda devonning yaratilish tarixi, ijodiy-biografik xarakteri yoritiladi. Shuningdek, ilmiy-filologik, tarixiy, memuar va boshqa nasriy asarlarda ham kuzatilishi mumkin bo‘lgan fikrlar bayonidagi ko‘tarinkilik, obrazlilik tamoyillarining keng istifoda etilishi, dabdabali sharqona uslubning hukmronligi, baroati istehlol san’atiga asoslanishi, Qur’on

<sup>29</sup>Фарҳангномаи адабиѳи форсий. Ҷилди дуввум. Ҷилди 1.–Техрон: Созимони чоп ва вузароти фарҳанг ва иршоди исломий, 1381/2003. – Саҳ. 599.

<sup>30</sup>Алишер Навоий: қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б.105.

<sup>31</sup>Фарҳангномаи адабиѳи форсий. Ҷилди дуввум. Ҷилди 1.–Техрон: Созимони чоп ва вузароти фарҳанг ва иршоди исломий, 1381/2003.– Саҳ.600.

<sup>32</sup>Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959. – Б.56; Валихўжаев Б. Ўзбек адабиѳишунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б.33-35; Муҳаммад Яўкуб Воҳидий Жужжоний. Мусаннифоти Амир Алишер Навоий.// Амир Алишер Навоий “Фоний”. – Қобул: 1346х. – Саҳ. 96; Былинин В.К. Стихотворение «Предисловия многоразлична» в рукописях первой половины 17 века. // Записки отдела рукописей. – М.: Книга, 1983. – Стр.5; Демин А.С. Писатель и общество в России 16-17 веков. – М.: Наука, 1985. – Стр.257; Султонмурод Олим. Навоий қанча ва нечта жанрда асар битган? //Янги Ўзбекистон, 2023 йил 1 февраль, 21-сон, 6-саҳифа.

oyatlari va hadislarini keltirish (iqtibos san'ati), ko'pincha nazm va nasrning qorishiq qo'llanishi, nasrdagi qofiya – saj' vositasida fikrni ta'sirchan ifoda etish kabilar debocha badiiyatining yorqin jihatlarini dalillaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda debochani shunday tavsiflash mumkin: *shoirning tarjimai holiga doir ma'lumotlar, shoir va zamon, shoir va adabiy muhit mavzusi, shoir asarlarining yaratilish tarixi, devonning o'ziga xos xususiyatlari, adabiy-estetik qarashlari ifodalangan, muayyan kompozitsion tuzilish, uslub va poetik xususiyatlarga ega bo'lgan hamda devonlarga muqaddima o'rnida yoziladigan ilmiy-badiiy xarakterdagi nasriy, she'riy yoki nasriy-she'riy asar debochadir.*

Ma'lumki, devon tuzish, asosan, X-XI asrlardan boshlangan. XI asr fors-tojik adabiyotining yirik vakillari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas'ud Sa'di Salmon, Sanoiyalarning devonlari mavjud. Tabiiyki, debocha devonning yaratilish tarixi va o'ziga xos jihatlaridan kitobxonni xabardor qilish ehtiyoji sababli yuzaga kelgan. Devonlar odobi tasnif, ya'ni kitob tasnif qilish qonun-qoidalari asosida shakllantirilgan. Unga ko'ra, har qanday asar basmala – “Bismillohir rahmonir rahim” oyati bilan boshlanishi, hamd-u na'tdan so'ng kitob ta'lif etish sabablari bayoni va asarning asosiy mazmuniga o'tish tartibiga amal qilingan. XI asr oxiri va XII asr 1-yarmida yashab ijod etgan Hakim Sanoiydan so'ng o'nlab fors-tojik shoirlari debochanavislik an'alarini ijodiy davom ettirdilar. XV asr Sharq adabiyotida odobi tasnif yanada takomillashdi, Navoiy ijodi misolida rasmiy devon uslubi shakllandi. Uning birinchi sharti devonning debocha bilan boshlanishidir. Ulug' shoirning “Badoye' ul-bidoya” devoni va “Xazoyin ul-maoniy” to'plamidagi debochalar Sharq debochanavisligining yuksak namunalaridir.

Bobning **“Debochaning shakliy-poetik turlari”** deb nomlangan 2-faslida debochalarning tur va xillari haqida bahs yuritilgan. Sharq adabiyotida yaratilgan debochalarni mazmuni, yozilish tartibi va ifoda yo'siniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- I. Kim tomonidan yozilganligiga ko'ra:
  1. Shoirning o'zi tomonidan yozilgan debochalar.
  2. Kotib yoki boshqa shaxslar tomonidan yozilgan debochalar.
- II. Qanday uslubda yozilganligiga ko'ra:
  1. Nasriy debochalar.
  2. She'riy debochalar.
- III. Qanday asarlarga yozilishiga ko'ra:
  1. Devonlarga yoziladigan debochalar.
  2. Dostonlarga yoziladigan debochalar(muqaddimalar).
  3. Boshqa asarlarga yoziladigan debochalar.

Sharq adabiyoti tarixida Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi shoirlar yaratgan debochalar poetik jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Biz bu haqda ishimizning keyingi boblarida to'xtalamiz.

Debochalarning ikkinchi turi – kotib yoki boshqa shaxslar tomonidan yozilgan debochalarga, ko'pincha, ishonchli manba sifatida qaralmagan. Tadqiqot jarayonida boshqalar tomonidan yozilgan debochalar ham kompozitsiyasi,

qo'yilgan masalalar doirasining kengligi, badiiyati, tarixiy manbalarga asoslangani bilan ahamiyatli ekani isbotlandi. Masalan, Hofiz devoniga shoirning do'sti Muhammad Gulandom va Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan Xoja Abdulloh Marvarid Bayoniy tomonidan, shuningdek, Hoqon taxallusi bilan ijod qilgan Eron shohi Fathalishoh Qojor devoniga uning kotibi Muhammad Sodiq Marvaziy tomonidan yozilgan debochalar fikrimizga dalildir.

O'tmishda yaratilgan debochalarning aksariyati nasriy-she'riy yo'lda bitilgan. Aniqrog'i, debochalarda bayon qilinayotgan fikrlarni dalillash, ta'kidlash, xulosalash maqsadida turli she'riy janr namunalariga murojaat qilinadi: qit'a, ruboiy, fard janridagi, masnaviy, bayt, misra shaklidagi she'rlar keltiriladi. She'rlar, asosan, "Nazm" sarlavhasi bilan beriladi. Xususan, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy debochalarida nazm deb atalgan bo'lsa, Qudsiy Mashhadiy debochasida katta hajmdagi masnaviylar – nazm, bayt esa she'r tarzida nomlanishi bilan xarakterli.

Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" debochasida 18 ta ruboiy, 7 ta masnaviy, 4 ta nazm, 4 ta bayt – 30 dan ortiq she'riy parchalar mavjud. "Xazoyin ul-maoniy" debochasida esa faqat 30 ta ruboiy keltirilgan.

Sof nasriy debochalar nisbatan kam uchraydi. Salmon Sovajiy, Nozil Xo'jandiy kabi fors-tojik shoirlari hamda o'zbek shoirasi Anbar Otinning debochalari hajman kichkina bo'lib, nasrda yozilgan. Tahir Uzg'o'ring "Turkcha devon debochalari" kitobida 40 ta turk shoirining debochalari haqida ma'lumot berilgan.<sup>33</sup> Ulardan Misoliy, Hussamzoda Feyzi, Hulusiy, Nuri Bey, Safoyi kabi 15 ga yaqin shoirlarning debochalari sof nasriy yo'lda bitilgan, Nejatiy, Revaniy, Jalalzoda, Solih Chalabiy, Sinaniy, Tashlisali Yahyo Bey kabi 23 ta shoirning debochalari esa nazm va nasr uyg'unligida yaratilgan. Ular qatorida Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy debochalari ham e'tirof etiladi.

Sharq adabiyotida nazmiy debochalar soni ham ko'p emas. O'zbek adabiyoti tarixida Shavqiy, Nodir-Uzlat kabi shoirlar o'z debochalarini she'riy tarzda bitganlar. Bu usmonli turk adabiyotida ham kuzatiladi. Tahir Uzg'o'ring ma'lumoticha, usmonli turk shoirlari Ahmad Posho debochasi – 128 bayt, Husniy debochasi – 3 bayt, Ferdi debochasi 13 baytdan iborat<sup>34</sup>. Shuningdek, debocha devon, doston va boshqa asarlarga yozilishi mumkin. Biz tadqiqot jarayonida, asosan, devon debochalariga e'tibor qaratdik.

Bobning uchinchi fasli "**Kotiblar va boshqa shaxslar tomonidan yozilgan debochalar**" deb nomlangan. Unda mashhur fors-tojik shoiri Hofiz Sheroziy, Hoqon taxallusi bilan she'rlar yozgan Eron shohi Fathalishoh Qojor devonlariga, shuningdek, o'zbek shoirasi Mohlaroyim Nodiraning forsiy devoniga kotib va boshqa shaxslar tomonidan yozilgan debochalar tahlilga tortilgan.

O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida Hofiz Sheroziyning 9089-raqamli qo'lyozmasi saqlanadi. Qo'lyozmaning 1b-5a varaqlarida Muhammad Gulandom tomonidan, 5b-8a varaqlarida esa Xoja Abdulloh Marvarid Bayoniy tomonidan yozilgan debochalar berilgan.

<sup>33</sup> Tahir Üzgör. Türkçe Dîvân dîbâceleri. –Ankara: Kültür Bakanlığı, 1990. – Cax. 10.

<sup>34</sup> O'sha asar. – B. 38-55;522-523; 524-527.

Hofiz Sheroziy hayotlik chog'ida she'rlaridan devon tuzmagan. Shoirning do'sti Muhammad Gulandom Hofiz vafotidan so'ng uning she'rlarini to'plab devon tuzadi va unga debocha yozadi. Debocha an'anaviy hamd-u na't bilan boshlanadi, fikrlar badiiy san'atlar: tashbeh va sa'j bilan ziynatlangan, forsiy debochalarga xos xususiyat –Qur'oni karim oyatlari bilan dalillanadi. Debochada so'z va uning qimmati xususidagi fikrlar, ayniqsa, e'tiborli. Masalan: “Qachonki shoir yuqoridagi nozik nuqtalarni fahmlagach hamda ushbu jumlar muqtazosidan voqif bo'lgach, uning iboralari chehrasi o'ziga xos yorqin tus oladi va so'zlarining jamoli tarovat kasb etadi. Shunda uning birgina bayti xuddi qasida darajasida bo'ladi. Uning birgina g'azali butun boshli saroyini egallaydi, bir qit'asi bilan mamlakatni bosib oladi, bir ruboiy bilan rub'i maskundan boj olish qudratiga ega bo'ladi”<sup>35</sup>. Muallif ikki jihat: she'r va shoirlik darajasi haqida mulohaza yuritish orqali Hofiz Sheroziy g'azallarining teran mazmuni va yuksak badiiyatini e'tirof etgan. Dissertatsiyada Hoqon va Nodira devonlariga yozilgan debochalar ham atroflicha o'rganilib, xulosalar chiqarildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Fors-tojik adabiyotida debochanavislik tarixi va taraqqiyoti”** deb nomlangan. Bobning **“Fors adabiyotida debochanavislikning yuzaga kelishi va tadrijiy takomili”** sarlavhali birinchi faslida forsiy she'riyatda devonchilik rivoji va uning Sharq debochanavisligi tadrijiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida fikr yuritilgan.

Fors-tojik adabiyoti sohibi devon shoirlarning ko'pligi, devonchilikning shakllanishi va debochanavislik an'alarining yuzaga kelishi bilan ham tahsinga loyiq. Tadqiqot jarayonida O'zR FASHI qo'lyozmalar fondidagi ko'plab fors-tojik shoirlarining devonlari o'rganildi. Xususan, Sanoiy (qo'lyozma №760,1a-13b), Avhadiddin Anvari (qo'lyozma №238/II,7b-8a) Salmon Sovajiy (qo'lyozma №2130, 1b), Xojui Kirmoniy (qo'lyozma № 159/IX,93b- 94b), Qosim Anvor (qo'lyozma № 926,136b), Qudsiy Mashhadiy (qo'lyozma №347 , 1b-4b), Qosim Devona (qo'lyozma №141/I, 1b-10a), Nozil Xo'jandiy (qo'lyozma №12080, 1b), Sa'diddin Ansoriy (qo'lyozma №2131, 1b-9a) kabi shoirlarning devonlarida debochalar mavjud. Biz kuzatgan shoirlarning devonlaridagi debochalar hajmi, qo'yilgan masalalari jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Salmon Sovajiy, Xojui Kirmoniy Qosim Anvor, Nozil Xo'jandiylarning debochalarida hamd-u na'tdan so'ng shoir va devonning yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Sanoiy, Qosim Devona, Sa'diddin Ansoriy kabi shoirlar debochalarida esa turli ijtimoiy, madaniy, axloqiy masalalar yoritilgan. Ularda Alloh hamdi, Payg'ambar na'ti, chahoryorlar maqtovi batafsil tavsiflanadi, shoir tarjimayi holi va devonining yaratilish tarixi haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Hakim Sanoiy devoni debochasida iqtibos san'ati keng qo'llangan bo'lib, shoir shaxsiyati va devon bilan bog'liq ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Buni Sanoiy debochasi fors-tojik she'riyatidagi debochalarning dastlabki namunasi bo'lgani bilan izohlash mumkin. Debocha diniy-ma'rifiy mavzudadir. Unda shariat ilmi, tariqat maqomlari, nafs va ruh ziddiyati xususida bahs yuritilgan. Jumladan, Sanoiyning yozishicha, nafsning to'rtta darajasi bor: “Avvali nafs ro'yanda va on shahvonist,

<sup>35</sup>Хофиз. Девон. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9089, 26–варақ.

do'vvum nafs jo'yanda va on hayvonist, sevvum go'yanda va on insonist va chahorum nafs sho'yanda va on Rabbonist"<sup>36</sup>. (Tarjimasi: "Birinchi nafs – o'suvchi va uni shahvoniy nafs deyishadi, ikkinchi nafs –izlovchi va u hayvoniydir. Uchinchi nafs – so'zlovchi bo'lib, u insoniy nafsdir. Va to'rtinchi nafs – poklovchi bo'lib, u Rabboniydir"). Ko'rinadiki, debocha nafaqat shoirning zamondoshlariga munosabatini anglashga (jumladan, amaldor Ahmad Mas'ud Mustauvfiy tavsifi keltirilgan), balki bilim-sa'j'iyasi va irfoniy qarashlarini keng mushohada qilishga ham imkon beradi.

Bobning ikkinchi fasli **"Xusrav Dehlaviy debochalari: an'ana va o'ziga xoslik"** deb atalgan. Faslda Xusrav Dehlaviyning "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot", "G'urrat ul-kamol", "Baqiya un-naqiya", "Nihoyat ul-kamol" nomli besh devoni va ularga yozilgan debochalarning shoir hayoti va ijodi, adabiy-estetik fikrlarini yoritishdagi ahamiyati ochib berilgan.

O'zR FASHI qo'lyozmalar fondida Xusrav Dehlaviy devonlarining 50 dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Ularning noyob nusxalaridan biri XIV asrda ko'chirilgan bo'lsa, ikkinchisi mashhur shoir Hofiz Sheroziy tomonidan kitobat qilingan. Yana biri 178-raqam ostida saqlanayotgan va shartli "Kulliyot" deb atalgan nodir nusxa XIV asrda zamonasining yetuk xattotlari tomonidan yirik suls xati bilan ko'chirilgan<sup>37</sup>. Sharq qo'zyozmalari katalogining II jildida mazkur qo'lyozmani tavsif etgan olimlar tomonidan quyidagicha ma'lumot berilgan: "Asarning boshlanishida katta so'zboshi (1a-60b) bo'lib, oralarida arab tilida yozilgan ko'chirmalar va she'riy parchalar keltirilgan. Ehtimol, bu asar Amir Xusravning hayoti va ijodi haqida o'zi tomonidan yozilgan alohida nasriy asar ham bo'lishi mumkin"<sup>38</sup>. Mazkur debocha hajmi va mavzu qamroviga ko'ra ham avvalgi devon debochalaridan farqlanadi. Shu boisdan u alohida asar, deb baholangan. Aniqlashimizcha, shoir "G'urrat ul-kamol" devoniga yozilgan so'zboshini debocha deb atagan. Boshqa devon debochalariga qaraganda, mazkur debocha shoir adabiy-estetik qarashlarining keng yoritilishi bilan diqqatga sazovor. Lekin debochanning boshlanish qismi mazkur nusxada saqlanmagan. Matnshunos Q.Munirovning ma'lumotiga ko'ra, "nusxaning avvali va oxiri suqutli bo'lib, uni 9661-raqamli qo'lyozma bilan solishtirib ko'rganimizda, asar avvalidan 1varaq tushib qolgan".<sup>39</sup> Mazkur fondida 9661-raqam ostida shoirning ikkinchi kulliyoti saqlanadi<sup>40</sup>. Kulliyotga "Tuhfat us-sig'ar" (1b-4b), "Vasat ul-hayot" (40b-45b), "G'urrat ul-kamol" (106b-147b) devonlariga yozilgan debochalari, g'azal, qasida va ruboiylari(1b-640b) kiritilgan. Ushbu nusxa hoshiyasiga uning "Xamsa"si yozilgan. Kulliyotning 106b-varaqdan 235b-varaqqacha bo'lgan qismida "G'urrat ul-kamol" devoni joylashgan. Tadqiqotimiz jarayonida 178-raqamli qo'lyozmadagi debochanning boshlanish qismi shu nusxada saqlangani ma'lum bo'ldi. Sh.Shomuhamedov va B.Musayevlar garchi shoirning beshala devoniga ham

<sup>36</sup> Девони Ҳақим Санойӣ Ғазнавий. Нашрга таёрловчи: Парвиз Бобойӣ. – Техрон: Муассасаи интишороти нигоҳ, 1375(1996). – Б. 24.

<sup>37</sup> Хусрав Дехлавий. Ғуррат ул-камол. Девон. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 178.

<sup>38</sup> СВР, II т. –Т.: 1954. –Б.113.

<sup>39</sup> О'sha asar. –Б.113.

<sup>40</sup> Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661.

debocha yozgani haqida ma'lumot bersalar-da, Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Baqiya un-naqiya" va "Nihoyat ul-kamol" devonlarining debochali nusxalarini uchratmadik.

"G'urrat ul-kamol" debochasida yozilishicha, Xusrav juda yoshlik paytlaridan she'r ijod qila boshlagan: "...tish tushadigan bolalik chog'larimda she'r aytardim va og'zimdani gavhar tomardi"<sup>41</sup>. "Tuhfat us-sig'ar" debochasida maktabda qanday tahsil olganini bayon qilib, ustoz Sa'diddin Muhammad xattotdan husnixat o'rganish o'rniga kattalarni taajjubda qoldiradigan g'azallar yozgani haqida ma'lumot beradi. Bir kuni shahar hokimining o'rinbosari Xoja Asil xattot Sa'diddin Muhammadni o'z uyiga chaqirtiradi. Sa'diddin bilan Xusrav ham birga boradi. Xoja Asilnikida mehmonlar orasida shoir Xoja Izaddin ham bor edi. Yosh Xusravning she'riy iqtidoridan xabar topgan shoir uni sinab ko'rish kerakligini aytadi va unga bir-biriga mazmunan nomunosib *mo'y (soch)*, *bayza (urug')*, *tir (o'q)* va *xarbo'za (qovun)* so'zlari ishtirokida she'r yozishni topshiradi. Xusrav quyidagi to'rtlikni o'qiydi:

Har mo'yi ki dar zulfi xami on sanam ast.  
Sad bayzai anbarin dar on mo'yi sanam ast.  
Chun tir bar on rost dilash ro, zero,  
Chun xarbo'za dandonash daruni shikam ast"<sup>42</sup>.

*Tarjimasi:*

*Ikki zulfin har mo'yida bu xush sanam*  
*Yuzlab anbar urug'ini qilmishdir zam.*  
*O'qday to'g'ri deya bilma dilin, chunki*  
*Qovun kabi tishi uning ichida jam*<sup>43</sup>

Uchinchi devon debochasi hajman katta bo'lib, unda shoirning adabiy mulohazalariga urg'u berilgan. Debocha Xusrav Dehlaviy biografiyasiga doir ma'lumotlarni oydinlashtirishda, dunyoqarashi, adabiy-estetik fikr olamining yorqin tomonlarini anglash va anglatishda nihoyat darajada muhimdir. Dissertatsiyada Xusrav Dehlaviyning "Tuhfat us-sig'ar", "Vasat ul-hayot", "G'urrat ul-kamol" devonlari debochalaridagi shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar, devonlari, badiiy ijod masalalari haqidagi fikrlari batafsil tadqiq etilgan va xulosalar chiqarilgan.

**"Abdurahmon Jomiyning debochanavislik mahorati"** nomli uchinchi faslda shoir devonlarining tartib berilish tarixi, adabiy-estetik qarashlari tahlilga tortilgan.

Shoirning lirik merosi "Fotihat ush-shabob", "Vositat ul-iqd", "Xotimat ul-hayot" nomli uch devonga jamlangan bo'lib, ularning barchasiga debocha yozilgan. Debochalarda shoirning tug'ilgan yurti, ijod jarayoni, taxallusi xususida ham ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, shoir o'zining Jom viloyatida tavallud topgani va shayxulislom Ahmadi Jomning irfoniy, ma'rifiy qarashlaridan

<sup>41</sup>Хусрав Дехлавий. Гуррат ул-камол. Девон. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 178, 3а-варақ.

<sup>42</sup>Хусрав Дехлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661, 3б-варақ.

<sup>43</sup> Шомухамедов Ш. Одабийлик иншоиси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.118.

bahramand bo'lgani tufayli Jomiy taxallusini tanlaganini yozib, quyidagi qit'ani keltiradi:

Mavludim Jom va rashhai qalamam,  
Jur'ai Jomi Shayxul islomest,  
Lojaram dar jaridai ash'or,  
Badu ma'niy taxallusam Jomest<sup>44</sup>

(Mazmuni: Tug'ilgan joyim Jom va qalamimdan tushgan siyohlar Shayxul islom jomining tomchilaridandir. Shu sabab she'rlar jaridasidagi ikki ma'no tufayli taxallusim Jomiydir).

Jomiyning "Vositat ul-iqd" devoni debochasida an'anaviy hamd-u na'tdan so'ng shoir yillar davomida risola va masnaviy kitoblar, ijod daftarlari, qasida va g'azallardan devonlar jamlagani to'g'risida so'z boradi. 897/1491-yilda Navoiyning taklifi bilan uch devonini bir jildga jamlaganini aytib, bunday yozadi: "...Va ushbu tarixi nabaviy hijratidan 900-yilga uch yildan ortiq vaqt qolmagan bir kunlarda (taxm. h.q. 897-yillar) darveshlarga muhib va e'tiqodli do'st, balki ularning sevikli va mu'taqidi bo'lgan zot ... Nizomul millat va din Alisherkim, menga murojaat bilan shunday arz qildikim, qo'limdagi mana shu ishlarga sharif himmat ko'rguzub, bularni anjomiga chaqirdi; qasidalar va g'azaliyot devonlarimning adadi uchtaga yetgan edi, ularni xuddi uchta mag'iz bir po'st ichida yetishgani kabi bir jildga jamlashimni bu faqirdan so'radi, iltijo, istid'o qildi"<sup>45</sup>. Navoiy shoirga har bir devoniga alohida-alohida nom qo'yish taklifini ham bildirgan. Jomiy devonlarini inson umri davrlariga mos tarzda quyidagicha nomlaydi: "Avvalgi devong'akim, yigitlik davrlarida paydo bo'lgan va zamon avvalidagi amallar va hodisalar namoyon bo'lgani uchun "Fotihat ush-shabob" deb ism berdim. Ikkinchi devong'akim, hayotimning o'rta yasharlik ayyomlarida nazm ipiga terilgani sabab "Vositat ul-iqd" deya nomladim. Uchinchi devong'akim, umrim oxirlarida tartib berishga boshlaganim uchun "Xotimat ul-hayot" deya nom qo'ydim".<sup>46</sup> Abdurahmon Jomiy debochalari Xusrav Dehlaviy debochalaridan hajman qisqa. Ularda, asosan, devonlarining yaratilishi va nomlanishiga e'tibor qaratilgan.

To'rtinchi fasl **"Zullisonayn shoirlarning forsiy debochalari"** tadqiqiga bag'ishlangan.

XVI – XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan Muhammad Fuzuliy, Mirzo Siddiq Tog'aymurod o'g'li Fano, Ahmad Tabibiy kabi turkigo'y shoirlar ham turkiy, ham forsiy tilda she'rlar yozgan, she'rlaridan devon tuzib, unga debocha bitganlar. XVI asrda yashagan atoqli ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy Alisher Navoiyning munosib izdoshlaridandir. Uning Navoiyga e'tiqodi va payravligi debochanavislik salohiyatida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Shoir turkiy va forsiy devonlariga debocha yozgan. Fuzuliyning forsiy debochasi ham turkiy debochasi

<sup>44</sup> Абдаррахман Джами. Три дивана. Фатихат аш-шабаб. Первый диван. Критический текст. – М.: Наука, 1978. – Стр. 15.

<sup>45</sup> Абдаррахман Джами. Три дивана. Васитат ал-икд и Хатимат ал-хайат. Второй и третий диван. Критический текст. – М.: Наука, ГРВЛ, 1980. – Стр. 5.

<sup>46</sup> O'sha asar. – С. 5.

kabi andoza va uslub jihatidan Alisher Navoiy yaratgan mumtoz debocha uslubiga juda yaqin. Debochada nasr va nazm o‘zaro uyg‘unlashgan. Debochaning mazmun-mundariyasi aynan Navoiy debochalaridagi singari Oллоhga hamd, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga na‘t, shoirning hasbi holi hamda adabiy-estetik qarashlaridan tashkil topgan. Shoirning hamd bitish uslubi o‘ziga xos – Navoiydan farq qiladi. Gap shundaki, Navoiyda nuktadon olimlik ruhi ustunlik qilsa, Fuzuliy hamdida shoirona shukuh ustuvor. Debochada Oллоhga hamd-u sanolar so‘zning ta‘rif-u tavsiflari bilan uyg‘unlashib ketgan: “...so‘z shunday zo‘r xazinaning shodasidirki, u xazinaning injularini alohida-alohida bir shaklda ipga shunday teradiki, ma‘no hech bir vaqtda so‘z ishtirokisiz o‘rtaga chiqa olmaydi”<sup>47</sup>. Debochada mazmun va shakl uyg‘unligi, she‘r va shoirlik, she‘r va ilm munosabati, g‘azal badiiyati masalalari yoritilgan. Xususan, Fuzuliyning she‘r va shoirga talabi qat‘iy: “Men bilamanki, sen dard bilan yaratilgansan, dard esa shoirning sarmoyasidir. She‘r aytmog‘ uchun zavq va safo lozim dema, darddan so‘z ayt, chunki so‘z o‘yinida yutuqni qozonuvchi darddir”<sup>48</sup>.

Mirzo Siddiq Tog‘aymurod o‘g‘li Fano XVIII asrning oxiri XIX asrning 60-yillarida yashagan. U uch tilda – turkiy, fors va arab tillarida ijod qilgan. O‘zR FASHI qo‘lyozmalar fondida 1030/II raqami ostida qo‘lyozma mavjud. Qo‘lyozmaning 255b-284a varaqlarida Fanoning turkiy devoni, 442b-480a varaqlarida esa forsiy devoni joylashgan. Qo‘lyozmada Fano devonlari Soib Tabriziy, Tahsin, Kirmoniy devonlari, Vahshiyning “Nodir va Manzur”, “Xuldi barin”, “Farhod va Shirin” dostonlari bilan birgalikda kitobat qilingan. Shuningdek, O‘zR FASHI qo‘lyozmalar fondida Fanoning forsiy devoni 7015-raqami ostida saqlanadi. Shoirning turkiy devoniga debocha yozilgan emas. Ishda forsiy devon debochasining mazmun-mundariyasi, uning shoir hayoti va ijodini yoritishdagi, adabiyotimiz tarixidagi o‘rnini belgilashdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Alisher Navoiy, asosan, turkiy devonlariga debocha yozgani ma‘lum. Garchi “Devoni Foniy”ga debocha yozilmagan bo‘lsa-da, devon tarkibidagi “Sittai zaruriya”ga qisqacha debocha bitilgan. “Sittai zaruriya” qasidalar to‘plami bo‘lgani uchun ham ulug‘ shoir debochanavislik tartib-qoidalariga to‘la rioya qilmagan ko‘rinadi. Debochada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik munosabatlarining ayrim qirralari yoritilib, “Sittai zaruriya” qasidalari haqida umumiy ma‘lumot berilgan.

Uchinchi bob **“Alisher Navoiy debochalari va o‘zbek mumtoz adabiyotida debochanavislik rivoji”** deb nomlanib, uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli **“Badoye’ ul-bidoya” devoni debochasi va uning ilmiy qimmatini** deb nomlangan. Mazkur faslda Alisher Navoiyning birinchi rasmiy devoni debochasi va unda qo‘yilgan masalalar xususida atroflicha fikr yuritiladi.

Ma‘lumki, Alisher Navoiy 1478-79-yillarda dastlabki rasmiy devoni “Badoye’ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni, 1480-87-yillar orasida ikkinchi devoni “Navodir un-nihoya” (“Nodirliklar nihoyasi”)ni tuzadi. 1492-98-yillar

<sup>47</sup> Девони ашъори форсийи Мавлоно Муҳаммад Фузулий. – Табриз: Интишороти Эрон, 1387/2008. – Саҳ.72.

<sup>48</sup> O‘sha asar. – B.75.

davomida avvalgi ikki devoni va keyingi davrda yaratilgan she'rlarini o'z ichiga olgan to'rt devondan iborat "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") to'plamini tartib berdi. Alisher Navoiy o'z devonlari bilan mumtoz devon tuzishning yuksak namunalarini yaratdi. Shoirning "Badoye' ul-bidoya" devoni debochasi bir necha lirik janrga xos she'rlarni o'z ichiga olgan, ulug' shoirning tarjimayi holi, xususan, yigitlik davri, ustozlari, zamondosh shoirlar, shoh va shoir munosabatlari, badiiy ijod masalalari keng qamrovda yoritilgan go'zal asardir.

Har ikki debochada ham shoir asarlarining yaratilish tarixiga keng to'xtaladi. Shuningdek, Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlarning bayoni debochada muhim o'rin tutadi. Husayn Boyqaro shoir she'rlarining tarqoq holda yo'qolib ketmasligi uchun ularni bir joyga to'plab, devon tuzish haqida topshiriq bergan va moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlagan holda topshiriqning bajarilishini nazorat qilib borgan. Debochada bu quyidagicha bayon qilinadi:

Tilarbiz bu parishon bo'lsa majmu',  
Ravon bo'lkim, emastur uzr masmu'...  
Bu nav' istaydur emdi royi oliy,  
Ki qilg'ay fikrating devon xayoli...  
Murattab qilmag'uncha tinma bir dam,  
So'z o'ldi muxtasar, vallohu a'lam<sup>49</sup>.

Nihoyat, juda katta mehnat evaziga devon yaratildi – "shah ihtimomi" tufayli "qasri oliy" bunyodga keldi:

Binoyedurki, shah bunyod qilmish,  
Zamona qasridek obod qilmish.  
Imorat sa'yida kim bo'lsa zarposh,  
Bino oning oti birla bo'lur fosh...  
Shah otin, chunki bu ma'nini bildim,  
Bu qasr ayvoni uzra sabt qildim (1-j. –B.23-24).

Navoiy devonni shohning doimiy diqqat-e'tibori tufayli bunyodga kelgan qasrga o'xshatadi. Imoratning tiklanishida kim bosh bo'lsa, bino o'sha kishining nomi bilan ataladi. Shunga ko'ra, Navoiy "bu qasr ayvoni uzra" "shoh otin" sabt etadi. Mazkur misralarda Navoiyning Husayn Boyqaroga bo'lgan sadoqati, samimiy hurmati ham ifoda etilgan. Fikr tadrijida yana quyidagilarni o'qiymiz: "... maqsad bu debochadinkim, bu ra'no ruxsorig'a bitildi, ul erdikim, chun salotindin qay birikim binoye qo'yubdurlar mani' va ayvone chekibtururlar rafi', ul bino ravoqida va ul ayvon toqida o'z ismlarin tahrir va o'z alqoblarin tanqir qilibdururlarkim, to ul ayvon toqi bo'lg'ay, ul ism ila boqi bo'lg'ay:

Kim qilsa imorateki, maqdur o'lg'ay,  
Chun ismi kitobasida mastur o'lg'ay.

<sup>49</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик, 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1988. –Б.19. Keyingi o'rinlarda ham shu manbaga murojaat qilinadi va sahifalari qavs ichida korsatiladi.

Ne choqqacha ul binoki ma'mur o'lg'ay,  
Ul ism ulus tiliga mazkur o'lg'ay" (1-j. –B.23).

Debochada devonchilik tarixidagi navoiyona kashfiyotlar o'z ifodasini topgan. Bularning aksariyati g'azal poetikasiga aloqador. Ya'ni mutafakkir shoir g'azallarning misra oxiridagi tovushlarga ko'ra alifbo tartibida joylashtirilishi va arab-fors alifbosidagi 32 ta harfning barchasida yaratilishi, devon va har bir harf g'azaliyotining avvali Ollohning hamdi va Rasululloh na'tiga bag'ishlanishi, keyin orifona va oshiqona g'azallar o'rin olishi, devondagi g'azallarning mavzu jihatidan kengligi va kompozitsion yaxlitligi kabi masalalarga maxsus to'xtaladi<sup>50</sup>.

Debochalardagi yana bir muhim jihat ulug' shoirning o'z salafлари va zamondosh shoirlar ijodiga bo'lgan munosabatidir. Ma'lumki, Alisher Navoiy, fors-tojik adabiyotining bu uch buyuk vakili – Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiyни she'riyatdagi buyuk ustozlari sifatida ko'p asarlarida ehtirom bilan tilga oladi. "Badoye' ul-bidoya" debochasida ham ular ijodining Alisher Navoiy she'riyatiga ta'siri masalasi yoritilgan<sup>51</sup>.

Debochada turkigo'y shoirlar – salafлар ijodi haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan: "Va uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin mavlono Sakkokiy va mavlono Lutfiy rahimahumol-lohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq-u Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo'lg'ay" (1-j. –B.14.). "Badoye' ul-bidoya" debochasida turkigo'y shoirlarga berilgan baholar shoirning keyingi davrlarda yozilgan asarlarida rivojlantirildi. Lutfiy, Sakkokiy, Shayxim Suhayliy ijodi haqidagi fikr-mulohazalar shoirning "Majolis un-nafois", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlarida mavjud.

Debochalarda davrning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma'lumotlar ham mavjud. Ma'lumki, 1469-yilda Abusaid Mirzo Ozarbayjondagi janglarda halok bo'ladi. Hirot taxtiga Husayn Boyqaro o'tiradi. Bu siyosiy voqeani shoir debochada shunday bayon qiladi: "... to ro'zgor havodisi ul jahondor saltanati asosin barham urdi va yel taharrukluk sipehr ul komgor sham'i hayotin o'churdi, mulkistonliq taxti bir shahanshoh maqdami bila tafoxur qildikim, saodat axtari tojining gavhari bo'lmoqliq bila boshin ko'kka yetkurdi..." (1-j. –B. 15.).

Bobning **"Xazoyin ul-maoniy" debochasi Sharq debochanavisligida alohida adabiy hodisa sifatida** deb nomlangan faslida to'plam debochasining mazmun-mundariyasi, mavzu ko'lami, kompozitsiyasini qurishdagi shoir mahorati masalasi atroflicha tahlil qilingan. Debochada hamd-u sano va na'tdan so'ng to'plamning tartib berilish sabablari, Husayn Boyqaroning Navoiy va uning ijodiga munosabati, "Xazoyin ul-maoniy"ning yaratilish tarixi, tuzilishi, ijodiy merosining qamrovi, hasbi hol kabi masalalar batafsil yoritilgan. Debocha duo, tilak xarakteridagi uch ruboiy bilan yakunlanadi.

Navoiyda barcha she'rlarini jamlab, ma'lum badiiy qurilma va mundarijaga ega bo'lgan she'riy to'plam tuzish fikri 1480-yillarning o'rtalaridayoq paydo

<sup>50</sup>Бу ҳақда қаранг: Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б.28-34. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – Б. 39-40.

<sup>51</sup> Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965. – Б.68.

bo'lgan edi. Buni "Xazoyin ul-maoniy" tarkibidagi birinchi devon "G'aroyib us-sig'ar" debochasidan olingan mana bu parcha ham tasdiqlaydi: "Va bu avqot mobaynida (ya'ni, "Xazoyin ul-maoniy" yaratilayotgan davr mobaynida – F.K.) har miqdorkim, fursat toptim, xoh "Xamsa" nazmidin-u xoh "Nazm ul-javohir" va "Majolis un-nafoysis"-u "Zubdat ut-tavorix" va soyir tasniflar ishtig'olidin ham ul hazrat duoyi davlatig'a avqotimni sarf qildim"<sup>52</sup>. Ma'lumki, "Xamsa" 1483-85-yillarda, "Nazm ul-javohir" 1485-yilda, "Majolis un-nafoysis" 1490-91-yillarda yaratilgan. Debochadagi ma'lumotga ko'ra, shoir mazkur asarlarini yozish jarayonida ham "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritiladigan she'rlarni to'plash, ularni devonlarga ajratish, tahrir qilish, tuzatish ustida ishlagan. Nihoyat, 1492-yilda she'riy to'plamni tartib berishga kirishgan.

Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ning tartib berilishiga to'xtalib, Husayn Boyqaroning sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etadi. Buni debochadagi fikrlar yaqqol tasdiqlaydi: "...burung'i ikki devonkim, bizning hukmi xitobimiz bila murattab qilding... Andin so'ngra yig'ilg'an ash'oring-u nazm rishtasig'a tortilg'an durri shahvorning adadi burung'i devonlardin ortqan chog'lig'durur va bu latofati sifoti xo'blar va malohati simoti mahublar bila yana ikki devon tartib bersa bo'lurdek ma'lum bo'ludur. Emdi avlo budurkim, bu g'arib ishga ko'ngul kelturgaysen, balki hukm bu erurkim, bu ajib amrg'a xoma surgaysen-u tafakkur xilvatgohida xayol sho'xu ra'nolari bila bazm tuzgaysen va to falak gardish qilur, bashar jinsining xayoliga kelmagan a'jubani elga ko'rguzgaysen" (MAT, 3-j. B. 13-14.). Husayn Boyqaro "nazm harimining xoslari-yu she'r bahring g'avvoslari"dan hech biri bunday katta yodgor qoldirmagani, faqat Amir Xusrav Dehlaviy sulton Malik shoh Alp Arslonga bag'ishlab to'rt devon tartib bergani, lekin ularning yetib kelmagani haqida so'zlab, Navoiyni bu ishga ruhlantirgan: "Chun senga tavfiq madad qiliptur-u bu maqsudning hech kimga yig'ilmag'an moddasi yig'iliptur, tilarbizkim, fursatni g'animat bilgaysen-u bu muddao husulig'a rag'bat qilg'aysen" (3-j. –B. 14.).

Umrining so'nggi yillarida katta tashvishlar va og'ir ijodiy mehnatlar tufayli xastalikka chalingan shoirga shoh topshirig'ini bajarish "dushvor ish" bo'lib tuyuladi. Shoir bu ishni bajarish davomida o'ziga diqqat-e'tibor va ko'mak zarurligini aytib, shohga murojaat etadi. Bunga javoban Husayn Boyqaro Navoiyni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga, moddiy va ma'naviy yordam berishga tayyor ekanini bayon qiladi: "Chun za'fi holing bizga zohir-u paydodur, shafqat-u bandanavozlig'lar bila ne yerda qolsang o'tkarilgusidur va chun shikast ahvoling bizga ravshan-u huvaydodur, marhamat-u navosozlig'lar bila har mushkiling bo'lsa hal qiling'usidurur" (3-j. –B. 16.). Husayn Boyqaroning javobidan ilhomlangan Navoiy avval yozgan g'azallarini jamlab, ularni ko'zdan kechirish, ayrim tuzatishlar kiritish bilan kifoyalanmaydi, balki yana yangi g'azallar bitib, ularning yoniga qo'shadi. Shu tariqa yig'ilgan g'azallarni "Sultoni sohibqiron" huzuriga yetkazadi. Ma'lum bo'lishicha, shoh saroyidagi adabiy yig'ilishlar "oliy majlis" deb yuritilgan. Navoiy "Munshaot"dagi xatlaridan birida "Xazoyin ul-

<sup>52</sup> Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. –Тошкент: Фан, 1988. –Б.19-20. Keyingi o'rinlarda ham shu manbaga murojaat qilinadi va sahifalari qavs ichida korsatiladi.

maoniy”ning musavvadasini suhbatdoshlar faxri bo‘lgan Mavlono Sohib orqali “Oliy majlis”ga yuborganini bayon qiladi: “Ul sababdin mafharus-savohib Mavlono Sohibni qulluqqa yiborildi va ul musavvadani oliy majlisqa yetkursun deyildi”<sup>53</sup>. Shunisi diqqatga sazovorki, Husayn Boyqaro Navoiy she’riyatining doimiy muhibi bo‘lib, har bir ijod namunasidan bevosita xabardor edi. Shoirning e’tiroficha, “betakallufluq” va “nomunosiblig” o‘rinlar uchrasa, ularni bartaraf qilish uchun ayrim tavsiyalar ham bergan: “... aytilg‘an abyot barcha latoyifosor va sabt bo‘lg‘an ash‘or barcha zaroyifshiorim, ellik, oltmish yo yuz g‘azalg‘a yaqin yig‘ilsa erdi, hazrati Sultoni sohibqironning firdavsoso suhbatida-vu sipehfarso hazratida hozir qilib arzg‘a yetkurur erdim va ul hazrat alarg‘a shafqat yuzidin boqib, qaysi ma‘no sho‘xiningkim tarkibi xil‘atida va alfozi kisvatida betakallufluq ko‘rsa, o‘z ganjinayi zamiri xizonasidin munosib alfoz bila ul liboslarg‘a tag‘yir berib va alfoz kisvatida sanoyi’ javohiridin nomunosiblig‘ ma‘lum qilsa, o‘z xizonai xotiri ganjxonasidin yoqut-u la‘li rangin va gavhar-u durri samin bila ul zeb-u ziynatqa tabdil yetkurub, har g‘azalni tartib yuzidin o‘z o‘rnig‘a raqam qilur erdi” (3-j. –B.17-18.). Umuman, shoir she’rlarining birinchi o‘quvchisi sifatida “ul hazratning muborak tab’ining anda (“Xazoyin ul-maoniy”da – F.K.) kulliy daxli bo‘lmag‘an” “hech juzve juz’iyot yo‘qtur”. To‘plamdagi she’rlar Husayn Boyqaro “tab’i bahridin va zehni konidin hosil bo‘lgan”i sababli ham “Xazoyin ul-maoniy” atalgan: “Bu ma‘no gavharlari barcha ul hazratning tab’i bahridinu zehni konidin hosil bo‘ldi va aning otin “Xazoyin ul-maoniy” qo‘yuldi”. Bu fikrlar ulug‘ shoirning shohga iltifot yuzasidan aytilgan o‘ziga xos lutfidir, albatta. Zero, Navoiy “Munshaot”da “Xazoyin ul-maoniy”dagi she’rlarni o‘z iste’dodi (tab’i) xazinalaridan hosil bo‘lgani uchun shunday nom berilganligini ta’kidlaydi: “Dag‘i majmuig‘akim, maxlut bitilibturur, chun tab’ xazoyinidin hosil bo‘lg‘on maoniy erdi – “Xazoyin ul-maoniy” laqab berildi”<sup>54</sup>.

Ishda “Xazoyin ul-maoniy” debochasiga tayanilib, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlari chuqur tahlil qilingan.

“Xazoyin ul-maoniy”ning tuzilishi bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlar ham aynan debochada aks etgan. Shoir yil fasllari va inson umriga monand to‘rt devonini to‘rt xil nom bilan ataydi: “To‘rt faslning muqobalasidakim, to‘rt devon voqi’ bo‘luptur, har qaysig‘a bir munosib ot darboyist edi, ul sababdin avvalg‘i devonnikim, tufuliyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzorining bog‘chasining g‘arib chechaklari bila orosta bo‘lub erdi, “G‘aroyib us-sig‘ar” deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yigitlik-u oshuftalig‘ va shabob-u oliftalig‘ yozi-yu dashtida yuzlangan nodir vaqoyi’ bila piyrosta bo‘lub erdi, “Navodir ush-shabob” ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat-ul-hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badii’ nishotlar kayfiyatini yozilib erdi, “Badoyi’ ul-vasat” ot qo‘yuldi. Va to‘rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dardu ranji foyidalarikim, jonso‘z oh urmoqu jon topshurmoqdurkim, anda sabt bo‘lubtur, “Favoyid ul-kibar” laqab berildi” (3-j. –B.18-19.). Shoir har bir devoniga kirgan she’rlarining yosh chegaralarini ham ko‘rsatgan.

<sup>53</sup> Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. 20жилдлик. 14-жилд. –Тошкент: 1998. – Б. 173-174.

<sup>54</sup> O‘sha asar. – Б.173.

Navbatdagi fasl **“Alisher Navoiy debochalari badiiyati”** deb nomlanadi. Unda debochalarning kompozitsion-uslubiy xususiyatlari, debochalarda saj’ san’atining o’rni, badiiy tasvir vositalari, she’riy parchalarning badiiyati o’rganilgan.

Shoir yashagan davrda forscha-tojikcha, arabcha so‘zlarga boy bo‘lgan o‘ziga xos sharqona uslub hukmron edi. “Bu uslub uchun fikrni mumkin qadar ko‘proq o‘xshatishlar, istiora va kinoyalarda, obrazli parallelizmlar orqali ifoda etishga intilish xarakterlidir. Buning natijasida shu uslubda yozilgan asarning tili ancha murakkablashadi”.<sup>55</sup> Devon debochalari shu uslubda bitilgan bo‘lib, asar tili anchagina murakkabdir.

Debochalar, asosan, saj’li va vaznli nasrda yozilgan, saj’li nasr bayonda yetakchilik qiladi. Vaznli nasr saj’li nasrga qaraganda kam qo‘llangan. Debochalar uslubida saj’lanish xarakteri ham murakkabroq. Aksar jumjalarning deyarli hamma bo‘laklari saj’lanadi va saj’ning uch turi – saj’i mutavoziy (to‘liq saj’), saj’i mutarraf (qofiyali saj’) va saj’i mutavozin (vazndosh saj’) – aralash qo‘llanadi. Bular ifodalanayotgan fikrning tez tushunilishini sezilarli darajada murakkablashtiradi. O‘z navbatida, debochadagi boshqa tillardan kirgan so‘zlarning ko‘proq saj’lanishi Navoiyning arab, fors-tojik nasri poetikasining nozik qirralarini egallashdagi mahoratini yaqqol namoyon qiladi. Masalan: “Ul humoyun zamirning oyinayi getiynamoyida ravshan-u paydodur va ul pokiza ko‘ngulning jomi jahonoroyida mubarhan-u huvaydokim, bu bandayi faqirg‘a ne notavonlig‘lar shikast berdi-yu bu zarrai haqirg‘a ne sargardonlig‘lar dast berdi” (3-j. –B.15). Mazkur parchada saj’li va vaznli nasr birgalikda qo‘llangan. Jumladagi barcha so‘zlarning o‘zaro saj’lanishi vaznli nasrni yuzaga chiqaradi va ohangdorlik, ravonlik, musiqiylikni ta’minlaydi, fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Agar jumlalani o‘zaro qiyoslasak, ularning ma’lum ritmga egaligiga guvoh bo‘lamiz, bu ritm esa saj’lanuvchi guruhlarining hamvaznligidan dalolat beradi:

ul humoyun zamirning oyinayi getiynamoyida ravshan-u paydo...

ul pokiza ko‘ngulning jomi jahonoroyida mubarhan-u huvaydo...

bu bandayi faqirg‘a ne notavonlig‘lar shikast berdi...

bu zarrai haqirg‘a ne sargardonlig‘lar dast berdi...

Debochada ayrim o‘rinlarda fikr soddaroq jumlar bilan ham ifodalanadi va saj’lanayotgan so‘zlar miqdori nisbatan kam bo‘lib, bir turkumga – ko‘proq ot, fe’l, ravish turkumlariga xos. Masalan: “Bag‘rim qizig‘anidin jismimda hummoyi lozim va ko‘nglum ozg‘anidin boshim aylanmog‘iyu ko‘zum qarormog‘i doyim. Ne tongdin aqshomg‘acha o‘zumga bir dam g‘izodin kom, ne aqshomdin tongg‘acha turfat-ul-ayne ko‘zumga uyqudin orom” (3-j. –B.20). Umrining so‘nggi yillarida shoirning salomatligi nihoyatda yomonlashadi. Bu kayfiyat saj’ san’ati vositasida jonli ifodalangan.

Debochalarda tashbeh, sifatlash, istiora, mubolag‘a, tafrit, tardi aks, talmeh, e’not, tanosib kabi ko‘plab ma’naviy hamda lafziy san’atlardan unumli foydalanilgan. Navoiy xastalikdagi ruhiy holatini quyidagicha yoritadi: “... agarchi

<sup>55</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. –B.380.

za'fimg'a quvvat imkoni zohir bo'luptur, ammo hanuz buzug' koshonamdin chiqarg'a qo'pmoq tilasam, osilg'an idbori ankabut torlari dastgirim bo'lub madad yetkurmaguncha, tebranmakka tob-u tavon va harakatqa maqdur, balki imkon yo'qtur, pashsha yuz pili damon torta olmag'an yukni nechuk tortqay, bataxsiskim, majruh-u ranjur dag'i bo'lg'ay, mo'rcha ming sheri jayon qila olmag'an ishni nechuk qila olg'ay, xususankim, bemor-u sihat tariqidin mahjur dag'i bo'lg'ay" (3-j. –B.15). Keltirilgan parchada o'xshatish, mubolag'a, tafrit kabi san'atlar shoirning kechinmalarini real va ta'sirchan ifodalash uchun xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalarning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati”** deb nomlangan. Bobning **“XVI asr Ozarbayjon adabiyotida debochanavislik an'analari”** nomli birinchi faslida ozar shoiri Muhammad Fuzuliyning turkiy devoniga yozilgan debochasiga diqqat qaratilgan.

Muhammad Fuzuliy zullisonayn shoir sifatida uch tilda – arab, fors, turkiy tillarda devon tuzgan. Uch tilda devon tuzish kam uchraydigan hodisa bo'lib, faqat Fuzuliy ijodidagina ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiyning muhibi bo'lgan Fuzuliy shoirning devonchilik sohasidagi an'analardan ilhomlanib, turkiy va forsiy devonlariga debocha yozdi. Xususan, shoirning turkiy devon debochasi nazm va nasrning uyg'unligi, fikrni murakkab, zanjirli jumlar bilan ifodalash, go'zal she'riy san'atlar bilan ziynatlash kabi xususiyatlariga ko'ra Navoiy debochalarini xotirga keltiradi. Xarakterlisi, shoir debochada fikrlarini dalillash maqsadida uch til: arab, fors-tojik va turkiy tilda she'riy parchalar keltiradi. Debochaning mundariyasi hamd, na't, hasbi holi hamda adabiy-estetik qarashlarning badiiy ifodasidan iborat. Navoiydan so'ng g'azal janrini kamolotga yetkazgan Fuzuliy mazkur janrga shoirning iste'dodi qudrati va mahoratini belgilovchi mezon sifatida baho beradi:

G'azaldur safobaxsh ahli nazar,  
G'azaldur guli bo'stoni hunar...  
G'azal bildurur shoirning qudratin,  
G'azal ortirur noziming shuhratin...  
G'azal deki, mashhuri davron o'la,  
O'qumoq-da, yozmoq-da oson o'la<sup>56</sup>.

Shoir debochada noqobil kotiblar, shoirlikni da'vo qiluvchi savodsiz “shoirilar” va hasadgo'y shoirlar xususidagi qarashlarini bayon qiladi. Noqobil kotiblar haqidagi mulohazalar nasr va nazm uyg'unligida go'zal tasvirlangan: “Biri ul kotibi noqobil va mumliyi johilki, xomayi muxolif tahriri teshayi bunyodi maorifdur va kilki kudurat ta'siri, me'mori binoi zaxorifdur. Goh bir nuqta ila muhabbati mehnat go'starar va goh bir harf ila ne'mati naqamat o'qudar. Qit'a:

Qalam o'lsun ali ul kotibi bad tahriring –  
Ki, fasodi raqami so'zimizni sho'r aylar.  
Goh bir harf suqut ila qilur nodiri nor,

<sup>56</sup> Муҳаммад Фузулий. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – Б.20-21.

Goh bir nuqta qusur ila ko‘zi ko‘r aylar”<sup>57</sup>.

Shoirning fikricha, noqobil kotib qalami bilan me‘mor qurgan binoni – devondagi she‘rlarni vayron qiladi. *Muhabbat* so‘zidagi nuqtani noto‘g‘ri qo‘yganligi uchun *mehnatga*, *ne‘mat* so‘zi esa *naqamatga* aylanadi yoki *so‘z sho‘rga*, *nodir norga*, *ko‘z ko‘rga* aylanib, ma‘noga putur yetadi. Fuzuliy ikkinchi toifa haqida shunday yozadi: “Va biri ul noqisi bad savodki, tab‘i nomavzunila majlisu mahofilda istido‘i iste‘dod qilib she‘r o‘quduqcha, nazmdan nasri sechilmaya va adoyi susti ila shohidi ma‘ni jamolindan niqob ochilmaya.

Benasib o‘lsin naimi-xulddin ul zishtkim,  
Nomuloyim lahjasi mavzuni nomavzun edar.  
Teshai lafzi binoi nazmi vayron aylayub,  
Sust guftori fasohat ahlini mag‘bun edar”<sup>58</sup>.

Fuzuliyning fikricha, shoirlik uchun iste‘dodning o‘zigina yetarli emas, balki shoir ilmi aruz, ilmi bade‘, ilmi qofiya borasida ham mukammal bilimga ega bo‘lmog‘i, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilmog‘i lozim. Aks holda, shevaga xos so‘zlarni noo‘rin qo‘llab, mavzun she‘rning vaznini buzadi, “teshai lafzi” bilan nazm binosini vayron qiladi. Shu o‘rinda Fuzuliyning arab, fors-tojik, xususan, ozar tili va uning lahjalarini yaxshi bilganligi, lahjalarga xos so‘zlarni ham she‘rlarida mahorat bilan qo‘llay olganligini nazarda tutsak, shoirning fikrlari yanada oydinlashadi. Uchinchi guruh hasadgo‘y shoirlardir. Ular haqidagi fikrlarni shoir shunday yoritadi: “Biri ul hosidi jafopesha va muonidi xato andishaki, tab‘i nomavzunila davoyi she‘r eda, ammo haqiqi ash‘ora sohib shuur o‘lmaya va idroki rakikla lofi nazm ura, ammo haqiqi guftora rohi tasarruf bo‘lmaya. Lojaram, hasad diydai insofing ko‘r edib, idrokina e‘timod edan johillar huzurinda behuda-behuda taarruzlar eda va harza-harza dahllar aylaya, toki she‘rdan zavqi istimo‘ keda.

Oh az on bodiyapaymoi biyoboni hasad  
Ki, nadorad dili zulmoniyash az irfon nur.  
Chun anokib be do bayti ki, baham mebofad –  
Xishra diyda beh az boniyi bayt-ul-ma‘mur.  
Ayb boshad hamajo matrahi maddi nazarash,  
Gardad az gardi hasad diydai insofash ko‘r”<sup>59</sup>.

(Ma‘nosi: Ma‘nosiz hasad cho‘llariga boruvchilardan dod, uning qorong‘i yuragida irfon nuri yo‘qdir. O‘rgimchak kabi bir-ikki bayt to‘qigach, o‘zini baytul-Ma‘murni bino qilgan kishidan ham usta hisoblaydi. Uning dunyoga qarashi tamomila xatodir. Baxillik gardidan uning insof ko‘zi ko‘r bo‘ladi).

Shoir ilm-u irfon bilan vobasta she‘riyat gulshanini xazon qilish payida bo‘lgan, amali ma‘rifat ahliga ozor berishni maqsad qilgan hosidlardan panoh tilash mazmunidagi she‘r bilan debochani yakunlaydi. Umuman, shoir debochalari

<sup>57</sup> Muḥammad Fuзулий. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.- Б.22

<sup>58</sup> O‘sha asar. – Б.23.

<sup>59</sup> O‘sha asar. – Б.23-24.

o'ziga xos bayon uslubi, kompozitsion-uslubiy xususiyatlari, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi, Fuzuliy shaxsiyati haqida yorqin tasavvur berishi bilan Sharq debochanavisligining go'zal namunalaridan biri hisoblanadi.

Bobning ikkinchi faslida **“XIX asrning birinchi yarmida yaratilgan debochalarning spetsifik xususiyatlari”** tahlilga tortilgan. Bu davr shoirlari Navoiy she'riyatining g'oyaviy-badiiy jihatlaridan oziq oldilar, shoir g'azallariga nazira va muxammaslar bog'ladilar. Shuningdek, Amiriy, Nodira, Nodir-Uzlat, Munis, Ogahiy, Shavqiy, Muhsiniy, Faqiriy, Tabibiy kabi shoirlar Navoiyning debochali devon tartib berish an'anasini davom ettirdilar.

Dissertatsiyada XIX va XX asr boshlaridagi devon debochalari ikkiga bo'lib o'rganildi: 1. XIX asrning birinchi yarmida yaratilgan debochalar. 2. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yaratilgan debochalar.

XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan Amiriy, Nodira, Nodir-Uzlat, Ogahiy, Munis, shuningdek, kattaqo'rg'onlik Muhammad Sharif Shavqiy kabi o'z davrining mashhur shoirlari devon tuzishgan. Mazkur devonlarga debocha ham bitilgan. Albatta, turkiy debochanavislik rivojini Alisher Navoiyning ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiyning debochalari kompozitsiyasi, til xususiyatlarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Munis debochasi ko'p jihatlari bilan Navoiy debochalariga hamohangdir. Masalan, shoir Qutlug'murod inoqning devon tuzish haqidagi taklifiga javoban bunday deydi: “Oning uchun ne ibo qilgali qudratim bor erdi va ne qabul etgali jur'atim”<sup>60</sup>. Navoiy ham Husayn Boyqarodan “Xazoyin ul-maoniy”ni tartib berish topshirig'ini olgach, o'z ahvoli ruhiyasini shunday bayon qilgan edi: “Ne uzr ayturg'a zahra-vu jur'atim va ne qabul qilurg'a havsala-vu quvvatim, agarchi uzr dilpazir emas erdi, ammo o'z ajzi holimni arzg'a yetkurmakdin ham guzir emas erdi”<sup>61</sup>.

Alisher Navoiyning “Badoye' ul-bidoya” debochasida Husayn Boyqaro shoir she'rlarini farzandga qiyoslaydi va ularni darbadar qilmasdan bir joyga jamlashga, ya'ni devon tuzishga farmon beradi. Ulug' shoir buni quyidagicha ifodalaydi:

Bu nav' istaydur emdi royi oliy,  
Ki qilg'ay fikrating devon xayoli.  
Jahonda kimga bo'lsa muncha farzand.  
Ki bo'lg'ay barcha ruhafzo-vu dilband.  
Ravomudur bizing farruh zamonda,  
Alarni darbadar qilmoq jahonda.<sup>62</sup>

Debochada she'rlarni farzandga qiyoslagan Ogahiy ham ulug' salafiga izdosh. Muhammad Rahim Soniy Ogahiyga devon tartib berish va unga debocha bitishni amr qilar ekan, shoir she'rlarini insondan yodgor qoluvchi yaxshi farzandlarga qiyoslaydi va ularni zamon hodisotlari tufayli yo'qolib ketmasligi uchun devon holida jamlashni ta'kidlaydi:

<sup>60</sup> Мунис. Мунис ул-ушшоқ. ЎзР ФАШИ, литография, инв. № 63, 13-варақ.

<sup>61</sup> Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. МАТ, 20 жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.- Б.14.

<sup>62</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ, 20 жилдлик, 1-жилд – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 19.

Kishiga she'rdin yo'q yaxshi farzand  
Ki, doyim boqi ul farzandi dilband.  
Ravo ko'rma alarg'a darbadarlik,  
Yatimoso hamisha navhagarlik.  
Alar haqqida mehr oyinini tuz,  
Borisin yig'nabon devong'a kirguz.<sup>63</sup>

Shuningdek, debochalarda shoirning ichki kechinmalari, davr ruhi va ijodkor laboratoriyasi ham aks etgan. Masalan, Ogahiy yoshlik yillarida hali madrasani tugatmasdan burun "charxi kajraftor" uni "rango-rang" balolarga giriftor qilgani, "sipohdorlig' mansabi" "shug'li zanjir" kabi butun vujudini chirmab olganini shunday tasvirlaydi: "Ammo hanuz ilm qavoidi choshnisidin kom va fazl qavonini lazzatidin bahrai tamom hosil qilmasdan burun jahoni g'addorning gunogun jafosi va charxi kajraftorning rango-rang balosi sar vaqting'a yetushti va ro'zg'or anduhi shiddatining og'ir yuki tog' yanglig' boshim ustig'a tushti va sipohigarlig' uzmaq tashvishig'a duchor va sipohdorlig' mansabining shug'li zanjirig'a giriftor bo'ldim"<sup>64</sup>.

O'zini "Temur Ko'ragon gulistoni shajarasining samarasi", "Bobur Sulton chamanining navbodasi" hisoblagan Amiriy oshiqona she'rlar bitgani, ustodlarning "muhabbatimiz" g'azallariga naziralar yozgani, muxammaslar bog'lagani, "andak fursatda varaq poralar yuzi to'lgan"i, saroydagi "zakitab' zufununlar" iltimosi bilan devon tartib berilganini bayon qiladi. Mohlaroyim Nodira esa she'riyatga qanday kirib kelganligi haqida so'zlar ekan, Amir Umarxon bilan bo'lgan suhbatlar davomida "...kam-kam she'r qonunidan xabardor bo'lub, goho biror misra, goho biror bayt taqlid birla aytgan"ligi, oz fursatda «nazm fununig'a mohir va mazmun sehirida sohir"<sup>65</sup> bo'lganligini e'tirof etadi.

Shavqiy debochasi she'riy uslubda yaratilgan shunday asarlarning yorqin namunasi. Debochada keltirilgan shoirning biografiyasi, adabiy merosi, ustozlari haqidagi ma'lumotlar ham uning adabiyotimiz tarixidagi o'rnini belgilashda muhim. Jumladan, shoir uch tilda yozilgan she'rlaridan devon tartib berganini yozadi, bu esa shoirning arab, fors-tojik va turkiy tillarni mukammal bilganligi va har uch tilda go'zal g'azallar yaratganligidan dalolat beradi:

Uch lafz ila olam ichra devon  
Ayg'on yo'x edi biror inson.  
Himmat kamarini belga bog'lab,  
Uslubi ulum ilan yarog'lab,  
Tuttum rahi hamd-u na'tu alqob,  
Yor o'lsa karimi hayyi vahhob.<sup>66</sup>

Tadqiqot jarayonida yuqorida nomlari ko'rsatilgan shoirlar debochalarining ilmiy-tarixiy va adabiy ahamiyati ochib berildi.

<sup>63</sup> Мухаммад Ризо Огахий. Девон. Таъвиз ул-ошиқин. – Тошкент: Адабиёт, 2023. – Б.22.

<sup>64</sup> O'sha asar. – Б.15.

<sup>65</sup> Нодира. Девон. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 4182, 36-варақ.

<sup>66</sup> Дебоchai девон ва ғазалиёти Шавқий. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 4634, 5а-варақ.

Uchinchi faslda esa **“XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yaratilgan debochalarning o‘ziga xosligi”** o‘rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Muhsiniy, Faqiriy, Tabibiy, Muhayyir, Komyob kabi shoirlar o‘z devonlariga debocha yozganlar. Faqiriy, Komyob debochalari ko‘proq an‘naviylik doirasida yaratilgan bo‘lsa, Muhsiniy, Tabibiy, Muhayyirlar debochanavislik an‘nalariga ijodiy yondoshganliklari kuzatiladi.

Xorazm adabiy muhiti vakillaridan biri Ahmad Tabibiy(1869-1911) talantli lirik shoir bo‘lsa-da, hozirgacha, asosan, “Majmuai si shuaro shohi payravi Firuzshohiy” nomli tazkirasi o‘rganib kelindi<sup>67</sup>. Devonlarini tadqiq qilishga esa endi kirishilmoqda<sup>68</sup>. Ahmad Tabibiy sermahsul shoir bo‘lib, o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Besh devon tuzgan. Ularning 3 tasi o‘zbekcha, 2 tasi tojikchadir. Shoirning O‘zR FASHI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 6226 inventar raqamli “Munis ul-ushshoq” devoni debochasida bu haqda shunday yozilgan: “...bu faqir qo‘lida jam’ bo‘lg‘on adaddin kitobning jumlasida besh devondurkim, uch devoni turkiy lafzi bilan fasohatorodur. Va ikki kitob forsiy alfozi bilan balog‘atpiyrodur. Avvalg‘i devong‘akim, Sultoni oliyjohi janobi muolli alqobig‘a hadiyalig‘ sababidin “Tuhfat us-sulton” deb tasmiya qilindi. Ikkinchi devong‘a ushshoq unsiyati jihatidin “Munis ul-ushshoq” ismi bilan musammam bo‘ldi. Va uchlonchi devong‘a ishq holotin muoyana ko‘rguzuvchi vajhidin “Mir‘ot ul-ushshoq” oti bilan mavsum etuldi. To‘rtinchi devong‘a oshiqqlar o‘qub mutolia qilur hangomlarida hayriyat fazolig‘ mujibi bilan “Hayrat ul-ushshoq” deb ism berildi. Beshlonchi devonni bedillar inbisoti jilvagohi bo‘lg‘oni boisi bilan “Mazhar ul-ishtiyok” deb ataldi<sup>69</sup>. Shoir “Munis ul-ushshoq” nomli turkiy devoniga va “Mazhar ul-ishtiyok” nomli forsiy devoniga debocha yozgan. Lekin debochalar, ayrim jihatlarini hisobga olmaganda, mazmunan bir-biridan farq qilmaydi. Bu esa Tabibiy turkiy debocha tarjimasini forsiy devonga ham kiritgan bo‘lsa kerak, degan tasavvur uyg‘otadi. Shu bois Tabibiyning forsiy debochasi xususida yuqoridagi boblarda alohida to‘xtalmadik. Shoir nafaqat Navoiy debochalari, balki fors-tojik adabiyotidagi, xususan, Xusrav Dehlaviy debochalari bilan ham tanish bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. Chunki Navoiyda debochalarning Alloh va payg‘ambarlar madhiga bag‘ishlangan hamd-u na‘t qismi birmuncha ixcham. Dehlaviyning “G‘urrat ul-kamol” debochasida hamdu sano va na‘t qismi nisbatan kengroq, Alloh va Muhammad payg‘ambar bilan birgalikda uning sahobalari bo‘lmish to‘rt xalifa madhi ham beriladi. O‘zbek adabiyotida Shavqiy va Tabibiy debochalarida xalifalar ham madh etiladi.

Tabibiy debochasida Navoiy debochalarining ta‘siri yaqqol seziladi. Masalan, shoir ota-onasining saroyga aloqador shaxslar ekanini ta‘kidlaydi:

<sup>67</sup> Matkarimova S. Табибий – таъкиранавис (“Мажмуаи си шуаро шоҳи пайрави Фирӯзшоҳий”): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 276.

<sup>68</sup> Амонов Ш. Аҳмад Табибийнинг “Ҳайрат ул-ушшоқ” девони қўлёзмаси ҳақида айрим мулоҳазалар.// Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. III республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2020 йил, 12 июнь. – Б.220-223; Аҳмад Табибийнинг “Ҳайрат ул-ушшоқ” девонидаги таржиъбандлар ҳақида.// Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2021 йил, 19 июнь. – Б.202-206.

<sup>69</sup> Табибий. Мунис ул-ушшоқ. ЎЗР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 6226, 8а-8б-варақлар.

Otam bu borgohg‘a erdi banda,  
Onam bu ostong‘a sarafkanda<sup>70</sup>

Bu baytlar Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” debochasidagi quyidagi misralarni yodga soladi:

Otam bu ostonning xokbezi,  
Onam ham bu saro bo‘ston kanizi<sup>71</sup>.

Debochada Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) saroyidagi she‘riy suhbatlar haqida ma‘lumot beriladiki, bu o‘sha davr saroy muhitidagi adabiy hayot darajasini belgilashda ahamiyatlidir. Shoir she‘riyatning g‘azal, mustazod, murabba’, muashshar, tarji‘band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit‘a, fardi itloq kabi o‘n janrida ijod qilganini ta‘kidlab, ularni “jami o‘n rang guldir”<sup>72</sup> deya faxr etadi.

